

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 6-iyun
№23 (3137)

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

www.mv-vatanparvar.uz



*Har bir qarich
yering
muqaddas!*

IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz
vatanparvar-bt@mail.uz
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri

VATAN MANZUMASI: MUQADDAS BURCH HISSI

Nazarimda, esimizni tanigan chog'danoq har birimiz Vatanning himoyasida ekanimizni his qila boshlaymiz. Aslida, Yaratganning xohish-irodasi bilan go'dakligimizdayoq qalbimizda onaga, Vatanga muhabbat tuyg'usi paydo bo'ladi, mustahkamlanadi. Uni himoya qilish esa muqaddas burch ekanini tushunamiz.



Har birimiz o'z oilamiz, tug'ilib o'sgan qishlog'imiz, shahrimiz, bir so'z bilan aytganda, Vatanimiz haqida gap ketsa, e'tiborsiz bo'lolmaymiz, negaki, kindik qonimiz to'kilgan go'sha – ota makon, ona yurtni ardoqlash va ulug'lash tabiatimizda, butun ong-u shuurimizda mujassam. Vatanni asrab-avaylash, sevish, uni himoya qilish shu aziz makondagi har bir farzandning, jumladan ijod ahlining, jurnalistlarning ham muqaddas burchidir.

To'g'ri, jurnalist Vatanni harbiylar kabi qo'liga qurol olib qo'riqlamaydi, askar singari postda turmas, ammo o'tkir qalami bilan yurtini himoya qiladi. Shu o'rinda aytish mumkin, jurnalistlar ham Vatan himoyachilaridir. Dunyoda yuzaga kelgan notinchliklar, avj olayotgan qarama-qarshiliklar ana shu muqaddas burchga sadoqat mas'uliyatini oshirish barobarida har birimizni, ayniqsa media soha vakillarini axborot xurujlari katta tahdidlardan biriga aylanib borayotgan bugungi kunda yanada ogoh va hushyor bo'lishga undaydi.

Ta'kidlash joiz, keyingi yillarda davlatimiz rahbarining g'oyasi bilan mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini yanada oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, yoshlarimizni yuksak harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan chuqur mazmunga ega ta'sirchan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilayotgani e'tiborga molik.

Kuni kecha poytaxtimizdagi "Turkiston" san'at saroyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli

Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning g'oyasi bilan "Vatan manzumasi" nomli adabiy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

"Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" degan ezgu g'oya asosida tashkil etilgan ushbu kecha dasturida istiqlol yillarida yurtimiz tinchligi va uning sarhadlari daxlsizligini himoya qilish yo'lida qahramonlarcha halok bo'lgan mard va jasur harbiylarning xotirasiga bag'ishlangan "Millat fidoyilari" xotira yodgorligi hamda Ikkinchi jahon urushi janggohlarida mardona kurashgan hamda front ortida mehnat qilgan vatandoshlarimizning tengsiz jasoratini madh etuvchi "Xotira nuri" kompozitsiyasi barpo etilishining ma'naviy hayotimizdagi ahamiyatini ochib berishga alohida e'tibor qaratilgan.

Muhtasham "Turkiston" saroyi foyesida tashkil etilgan harbiy qurol-yarog'lar maketlari, badiiy adabiyotlar ko'rgazmasi tadbir ishtirokchilari uchun mavzuning o'ziga xos muqaddimasi vazifasini o'tadi. Ta'kidlash lozimki, ushbu ma'rifiy dastur aniq g'oya va syujet hamda teatrlashtirilgan badiiy kompozitsiyalar asosida tayyorlangani bilan ko'pchilikda qiziqish uyg'otmoqda.

Adabiy-ma'rifiy kechaga mamlakatimiz poytaxti, shuningdek Toshkent va Sirdaryo viloyatlaridagi ommaviy axborot vositalarida faoliyat olib borayotgan jurnalistlar ham taklif etildi.

Ushbu dastur avvalgi tadbirlarga monand tarzda tashkillashtirilgan bo'lsa-

da, bu yilgi chiqishlar, namoyishlar o'tgan yillarga o'xshamagan o'ziga xos jihatlari bilan alohida ajralib turdi. Uni tomosha qilgan odam tinchlik eng bebaho ne'mat ekani, u o'z-o'zidan ta'minlanmasligini, osoyishtalikni saqlash uchun shu yurtning har bir farzandi birlashishi, ahil-inoq, Vatanga sadoqatli bo'lishi, Vatanni onani sevgandek sevrishi, o'z onasini himoya qilgandek himoya qilishi lozim va shartligini yana bir bor teran anglashi shubhasiz. Qolaversa, yurtimiz tinchligini saqlash nafaqat harbiylarimiz, balki har bir vatandoshimizning muqaddas burchi ekani, agar barchamiz bir tan-u bir jon bo'lsak, osoyishtaligimizga hech kim raxna sololmasligini his qiladi.

...Davlatimiz madhiyasi yangradi. Sahnaga harbiy xizmatga chaqirilgan askarlar o'z sardorlari boshchiligidagi chiqib keldi. "Vatan manzumasi" dasturidan o'rin olgan kuy va qo'shiqlar, sahna ko'rinishlari harbiy xizmatchilarning ham jismoniy, ham aqliy va ma'naviy jihatdan kamol topib, mard va professional askarlarga – chinakam Vatan himoyachilariga aylanishiga

xizmat qilishi quvonchli, faxrlidir. Kechada O'zbekiston Qurolli Kuchlaridagi zamonaviy o'zgarishlar, "Xalq bilan armiya – bir tan-u bir jon" degan ezgu g'oya, ko'p millatli xalqimizga xos o'zaro ahillik va hamjihatlik tuyg'ularining milliy armiyamiz hayotida yorqin namoyon bo'layotgani chuqur mazmun bilan ochib berilgan.

Askarlarning hayajonli va mas'uliyatli harbiy faoliyati, dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin topib borayotgan jonajon O'zbekistonimiz mustaqilligini, chegaralarimiz daxlsizligini

munosib himoya qilish uchun zarur harbiy bilim va ko'nikmalarni, xususan zamonaviy axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt asoslarini o'rganishi, zamonaviy qurol-aslahalarni boshqarishi, xorijiy tillarni egallashi ta'sirchan lavhalarda namoyon bo'ldi.

Dastur davomida taniqli baxshlar tomonidan ijro etilgan ona Vatanni ulug'lovchi termalar, buyuk ajdodlarimiz – mard va jasur sarkarda Jaloliddin Manguberdi hamda sohibqiron Amir Temur monologlari, o'zbekona oriyat va g'urur tarannum etilgan, jaded ma'rifatparvarlarining yurt taraqqiyotiga erishish yo'lidagi intilishlari aks ettirilgan sahna ko'rinishlari, taniqli ijodkorlar va iste'dodli yosh shoirlarning she'r va qo'shiqlari, harbiy jamoalarning chiqishlari hech kimni befarq qoldirmadi.

Ayniqsa, Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari tomonidan ijro etilgan jangovar chaqiriq, "Yangi O'zbekiston armiyasi", "Men posbonman", "Armiya va tarbiya" singari qo'shiqlar va boshqa bir qator qiziqarli musiqiy-xoreografik chiqishlar tomoshabinlar tomonidan olqishlar bilan qarshi olindi. Shuningdek, "Nihol" mukofoti sovrindori Saidnosir Yigitaliyev, iste'dodli xonandalar Shuhrat Daryo, G'aybullat Tursunov, Madina Fayzullayeva, O'temis Jumaniyazov ijro etgan qo'shiqlar davraga o'zgacha fayz kiritdi.

Yangi tariximiz sahifalarida hammamiz doim hurmat va minnatdorlik bilan eslaydigan shunday insonlar borki, ular mustaqilligimiz himoyasi yo'lida, sharaflari xizmat burchini o'tash chog'ida

jonfido etgan chinakam qahramonlardir. O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning ana shunday mard va fidoyi yurtdoshlarimiz xotirasiga bag'ishlangan "Barhayot o'g'lonlar" deb nomlangan she'ri qalblarni larzaga soldi.

Shuningdek, dastur davomida tegishli vazirlik va idoralar hamda Yozuvchilar uyushmasi tomonidan "Mard askarga sovg'a" turkumida nashr etilgan yangi kitoblarning taqdimoti ham o'tkazildi.

Qariyb bir yarim soat davom etgan tadbir dasturidan o'rin olgan rang-barang chiqishlar – el suygan san'atkorlarning Vatanni, onani, ayolni, do'stlikni, tabiatni madh etuvchi kuy-qo'shiqlari, ustoz hamda navqiron shoir va shoirlarning oila, el-u yurt, tinchlik, sevgi-muhabbatga oid odamni o'yga toldiradigan chuqur ma'noli, qalblarni junbishga keltiradigan she'rlari, harbiylarimiz faoliyatiga doir mazmunli, ko'tarinkilik, faxr-iftixor baxsh etuvchi lavhalar – barcha-barchasi tomoshabinga zavq-shavq berish barobarida chuqur o'yga toldiradi, fikrlashga, mushohada qilishga undaydi.

– Bunday ma'rifiy kechalar ko'proq o'tkazilishi kerak, deb o'ylayman. "Vatan manzumasi" dasturi menga mamlakatimiz ahlining kuchli insoniy tuyg'ulari namoyishidek taassurot uyg'otdi, – deydi "Jamiyat" gazetasi bosh muharriri Maqsd Jonixonov. – Shuni nazarda tutganda, ma'rifiy uyg'onishlar yuz berayotgandek. Bu yerga ziyolilar, xususan media soha vakillarining taklif etilgani, shuningdek zalda o'g'il-qizlarimizni, Vatan himoyasida bo'lgan harbiy libosli yigitlarimizni ko'rib, tadbirning ahamiyati katta ekanini chuqurroq his qilasiz. Zotan, bunday ma'rifiy dasturlar ishtirokchilarni Vatan muqaddasligini teranroq anglashga undaydi, har bir insonda Vatanga sadoqat tuyg'ularini yanada mustahkamlaydi.


Yurtga sadoqat haqida gap ketganda, bir ma'lumot yodga tushadi. Tarixdan ma'lumki, Buyuk Xitoy devori qurilganidan keyin ham Chin yurtiga tashqi dushman tomonidan ko'p bora yurishlar qilingan. Ularning hech biri Buyuk devor (balandligi 6-10, kengligi, 5,5-6,5 metr) ustidan o'tib mamlakatga bostirib kirmagan, ehtimolki, buning uddasidan chiqa olmagan. Ammo har bir necha yuz metr oralig'idagi Xitoy devori darvozalarida turuvchi soqchilarning sotqinligi tufayli yov chegaradan o'tishga muvaffaq bo'lgan. Nega bunday bo'lganini o'rganish jarayonida mas'ullardan biri javob bergan ekan: "Biz Buyuk Xitoy devorini har jihatdan baquvvat qilishga judda katta kuchimizni safarbar etibmiz-u, askarlarimiz ma'naviyatini, vatanparvarligini yuksaltirish, ularda yurtga sadoqat tuyg'usini shakllantirishga yetarlicha e'tibor qaratmagan ekanimiz".

Ha, harbiylarda, har bir vatandoshimizda Vatanga sadoqat tuyg'usi yuqori bo'lishi juda muhim, kerak bo'lsa barchasidan-da muhimroq! Shu bois hozirgi kunda nafaqat yurt posbonlarida, balki barcha soha vakillarida, aholida bu tuyg'uni mastahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shundan kelib chiqilsa, "Vatan manzumasi" kabi adabiy-ma'rifiy kechalarning o'rni juda baland.

Ta'kidlash joizki, ushbu adabiy-ma'rifiy tadbir namoyishi poytaxtimizda muvaffaqiyat bilan davom etmoqda. Yaqin kunlarda "Vatan manzumasi" dasturlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda, shahar-tumanlarda, ta'lim muassasalari va mahallalarda ham namoyish etish rejalashtirilgan.

Xolmurod SALIMOV,
O'zbekiston Jurnalistlar
uyushmasi raisi v.b.,
Mudofaa vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi a'zosi

“Jadidlarning ma'naviy qahramonligi” tanloviga



Mahmudxo'ja Behbudiy “matlabim – arzi hunar va izhori fazi emas, ahli Vatanga qo'limdan kelguncha bir xizmatdur” degan kamtarona fikrida Turkiston o'lkasini erkin va ozod Vatan sifatida ko'rishni nazarda tutgan edi. U o'lkada madaniy va ma'naviy, siyosiy hamda xavfsizlik sohasida qonunlarning mustahkam bo'lishi uchun kurashib yashadi, insonning himoyasiga bag'ishlangan normalar ishlab chiqishda bevosita ishtirok etdi. Turkiston xalqining milliy qahramoniga aylandi.

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston Muxtor Respublikasining barpo etilishida eng faol tashkilotchilardan edi. U tashkilotchilar bilan birgalikda “Turk adami markaziyat” firqasi nizomini tayyorlaydi, Muxtoriyat Prezidiumi a'zosi sifatida ham faoliyat olib boradi.

Nizomning asosiy maqsadi sifatida “xalq jumhuriyati tashkil etmakdur” deb dastlabki moddalar kafolatlanadi. Hujjatning asosiy moddalarida “milliy muxtoriyat” masalasi qo'yilib, asosiy e'tibor fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratiladi. Shuningdek, “Yuqorida mazkur barcha muxtoriyatli qit'alar markaziy hukumat ila **Vatan mudofaasi**, pul chiqarmoq, boj va xorijiy hukumatlar ila munosabatda bo'lmoq xususlarida aloqa va irtibotini (*bog'liqlikni*) muhofaza qilur” deb muxtoriyatli mamlakatning mudofaasi masalasi ham qo'yilgan edi.

Ya'ni hujjatning 10-moddasida shunday deyiladi: **“Har bir muxtoriyatli qit'alarda Vatan muhofazasi uchun xalq militsiyasi tashkil qilinub, hozirgi tashkiloti askariya (harbiy tashkilotlar) usuli bitirilur”**. Demakki, har bir mustaqil bo'lgan o'lkalarda mamlakat va xalqning xavfsizligini ta'minlash uchun xalq militsiyasi hamda uning harbiy tashkiloti bo'lishi zarur ekani ta'kidlanadi. Uning kuchga kirish masalasi hujjatning “Milliy masalalar” nomli ikkinchi bobida o'z aksini topgan. Ya'ni bunday ta'minotlarning huquq va vazifalari muxtoriyatli o'lkalarning birinchi quriltoida tasdiqlanishi belgilangan.

Nizomda barcha fuqarolarning qonun oldida barobar ekani, din va vijdon erkinligi, so'z erkinligi, saylash va saylanish huquqi, oila muhofazasi,

fuqarolarning mamlakatdan erkin chiqish va kirish huquqlari bilan bir qatorda mudofaa va xavfsizlikning qoidalariga amal qilish normalari ham belgilab qo'yilgan. Ya'ni: **“Yuqorida mazkur barcha ahliyat huquqi asosiy qonunga doxil bo'lub, mudofaa va muhofazasi mahkamayi oliyalarg'a havola qilinur”** deb belgilangan.

Shuningdek, “Turkiston madaniy muxtoriyat loyihasi” Behbudiy tomonidan ishlab chiqilgan. Bu hujjat ayni paytda 3-davlat Dumasida ko'rib chiqish uchun musulmon fraksiyasiga topshirilgan. Loyihaning “Ikkinchi Duma fraksiyayi islomiyasining xizmati oliylarina “Ifoda” Behbudiy tomonidan 1907-yilning noyabr oyida “Ittifoqi muslimin” idorasi nomidan yuborilgan. Bunda Behbudiy: “Millatimizni iste'dodsiz va idorayi doxiliya va aftonomiyani ijro va hifzig'a (*ko'rinmoq*) qodir emas zan eduvchilar (*gumon qilmoq*) albatta xato edarlar. Ovrupoyi rus musulmonlaridan ziyodroq aftonomiyani Turkistong'a berilmog'i lozimdur”. Taraqqiyparvarning mamlakat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bunday harakatlari, Turkiston uchun avtonomiya berilishi talabi ayni paytda ulkan jasorat edi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning Turkiston o'lkasining himoyasi hamda mudofaasi to'g'risida o'nlab maqolalar yozdiki, taraqqiyparvarning **“Turkiston muxtoriyati”, “Vatanparvarlik kerak”, “Ionat kerak, ko'ngulli askar kerak”, “Yordam kerak”, “Bayoni haqiqat”, “Haq olinur, berilmas”, “Bizga isloh kerak”, “Qozoq qarindoshlarimizga ochiq xat”, “G'alla, askarlik, yer va tazminoti harbiya”** kabilar shular jumlasidandir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Behbudiy va uning maslakdoshlari Turkiston Muxtoriyatini tuzish tarafdori edi. Ular Turkiston Muxtoriyatini e'lon qildi. Ya'ni o'lka musulmonlarining Favqulodda IV qurultoyida Turkistonda yashovchi millatlarning huquqlarini saqlash maqsadida milliy qo'shin tashkil qilish ham muhokama etilgan asosiy masalalar qatoridan joy olgan. Ayni paytda Muxtoriyatning tashkilotchilari o'zlarining har bir harakatlarida, nutq va maqolalarida turkistonliklarning milliy askar olish, ya'ni milliy armiya tuzishga da'vat etib bordi. Bolsheviklarning muxtoriyatga bo'lgan munosabati jadidlar tomonidan milliy armiyani yanada mustahkamlashga bo'lgan harakatlarini taqozo etardi.

Behbudiy o'zining “Qozoq qarindoshlarimizg'a ochiq xat”ida o'lka xalqlarni birlashishga chaqiradi: “Aziz qarindoshlarim! Hammangizg'a ma'lumdurki, Turkiston demak turkiy el bo'lib, mundagi xalqning qozog'i, qirg'izi, sarti, o'zbeki, turkmani, tatari – hammasi turk – mo'g'ul bolalari hamda jahongir Chingizxon va Temurning avlodi yoki og'a-inisidurlar...

Bourlar! Bilingki, hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e'lon qilindi va siz bilingki, “Haq olinur, berilmas!” ya'ni “Muxtoriyat”ni Turkiston bolalarining o'zi birlashib, g'ayrat ila olurlar, albatta, boshqalar tarafdin berilmas. Boshqalarning qo'lidan kelsa, bermaslar. Biz bo'shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yo'lig'a sa'y qilmasak, hozirgi qog'oz ustidagi muxtoriyatimizni ham yo'q qilurlar... Chirog'larim, birlashaylik! Endi birlashmoq zamonidir”.

Bolsheviklar milliy qo'shin tashkil etish tarafdori emas edi. Ular milliy qo'shin tashkil etishni “aksilingilobchilik harakati” deb baholadi, ular imkon boricha muxtoriyatchilarni ta'qib ostiga olishga harakat qildi. Natijada Turkiston o'lka sovetlarining 1918-yil 23-yanvardagi IV syezdida Qo'qondagi hukumatni tarqatish

uchun qaror e'lon qildilar.

Turkiston Muxtoriyati askarlari bilan bolsheviklar o'rtasida qurolli to'qnashuv bo'ldi.

Behbudiyning **“G'alla, askarlik, yer va tazminoti harbiya” to'g'risidagi maqolasi** Turkiston Muxtoriyati askarlari yo'qotilganidan keyin yozilgan. Behbudiyning ta'kidlashicha, ayni paytda Turkiston hukumatining raisi Ivan Osipovich Tobolinning huzurida bo'lib, 1918-yilning iyul oyi oxirlarida askar olish, harbiy ta'minot masalasi bo'yicha gaplashganini yozadi. Shuningdek, Behbudiy tomonidan I.O. Tobolinga takliflar bildirilgan. Bu takliflari ichida xalqning ichidan askar olmaslik masalasi bor edi. Behbudiy I.O. Tobolinga ayni paytda bu masalaga jiddiy e'tibor qaratishini aytib, umumiy askar olinmaslikni so'radi. Xalqning ahvoliga e'tibor qaratishini bildirdi. Ya'ni “tazminoti harbiya masalasi”dirki, bu harbiylar uchun olinadigan to'lov masalasidir. Behbudiy hukumat raisiga bu to'lovni xalqdan olinmaslik masalasini kiritgan edi. **Taraqqiyparvarning yozishicha: “hozirda maishat va siyosat osoyishtalikni talab etadur. Xalq ham ochliq va qimmatchiliq va shunga o'xshash og'riqlardan horigan va asabiylashgandur”**.

Muallifning ta'kidlashicha, hukumat raisi Behbudiyning takliflarini qabul qilgan. Askarlarning ko'ngilli ravishda olinishiga va yangidan tazminot olinmasligiga qo'shilishini aytgan. Bu masalalarni amalga oshirishiga va'da bergan. **Qolaversa, u yozganidek: “Xulosa: ko'b so'ylagandan so'ngra bizning takliflarimiz biroz o'zgartirilib, ikki kungi majlisdan so'ngra shul ravishda qabul qilinadi va qonun bo'ldi”**.

Taraqqiyparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning Vatan xavfsizligi, uning mudofaasi sohasidagi qarashlari samimiy bo'lib, u milliy o'lkamizning kelajagi uchun bor kuchini sarfladi. Uning o'zi yozganiday: **“Matlabimiz Turkiston musulmonlarining vatanparvarligig'a tashviq etmak edi... Vatanimizg'a dushman e'loni harb etgani uchun ta'sirlanib izhori vatanparvarlik etmoqimiz lozimdur”**.

Xulosaki, bugun Mahmudxo'ja Behbudiy orzu qilgan, millatning xavfsizligini ta'minlaydigan milliy armiyamiz mavjud. Ular bugungi kunda zamonaviy texnika, zamonaviy ilmlarga egadir. Taraqqiyparvar aytgan ediki: **“Hamvatanlarimiz mulkingizni sotsangiz-da, o'g'lingizni zamoncha o'qumoqig'a sa'y qilsangiz, to'yg'a isrof qilinaturgan aqchalarni o'qumoq yo'lig'a sarf qilsangiz!”**

Normurod AVAZOV,
Alfraganus universiteti
professori, filologiya fanlari
doktori (DSc)

Esse

MEN BO'RIDEK EMASMAN...

Aka, men hayvonot olamini judayam yaxshi ko'raman. Ayniqsa, bo'rini. Aytgancha, uni hech yaqindan ko'rganmisiz? Yo'q, qafasdagini emas, chinakam – yovvoyisini? Ha, kamina ko'p bora bo'ri bilan ro'baro' bo'lganman. Qayerda bo'lardi, dasht-u dalalar va tog'larda-da. Nigohi o'ta o'tkir bo'ladi. Tishlarini aytmaysizmi... U agar o'ljasiga hamla qilsa bormi, yiqitmay qo'ymaydi. Bunga shaxsan guvoh bo'lganim bor. Qisqasi, bu boshqa bir hikoya-da, aka. Albatta, vaqt topib, u haqda ham sizga gapirib beraman.

Lekin bugun bo'rining shijoati-yu g'ayrati, qaytmasligi va sergakligiga o'xshash harakatlarni o'zlashtirgan harbiy xizmatchilar bilan olib borilgan navbatdagi mashg'ulotlar haqida so'zlab beraman. Eshitasizmi?

Aka, u yerdagi harbiy xizmatchilarning imkoniyatlari juda ham yuqori ekan. Tinmaydi-

Bu esa azamatlarning mahorati oshishiga xizmat qiladi. Duch kelgan muhitga tez moslashib, o'sha vaziyatni nazoratga olishlarida asqatadi. Agar harbiy xizmatchi faqat bir xil sharoitda vazifa bajarib o'rgansa va tajriba oshirsa, alaloqibat u shu narsaga o'rganib qoladi. Bu yutqazish degani. Shu kabi

Qirdan ketayotgan merganlar ham atrofni o'rganib, ma'lumotlarni yetakchiga aloqa vositalari orqali uzatib turibdi. Ochig'i, ularning barcha harakati meni xavotirga solayotgandi. Nega bular bu darajada hushyor, har bir narsaga shubha bilan qarayapti? Shu xayol bilan tepaga

– Jang maydoniga kirgan askar shafqatsiz qarshilikka uchraydi, – u hamon boyagidek so'zlayotgan edi. – Ana shunda mashg'ulotlarda o'rgangan bilimlari qo'l keladi. U vaziyat bo'yicha qaror qabul qiladi, kerak bo'lsa, yetakchilik vazifasini bajarib, guruhning olg'a yurishi



da. Yangicha harakatlar, yangicha usullar va yangicha jang olib borish taktikalarini o'rganib, o'zlashtirib, amaliyotga joriy etib kelmoqda.

– Bugun o'rganilgan bilimni ertaga yangilashni talab etyapti bu zamon, – deydi podpolkovnik Rahmat Daminov. – Shu boisdan biz harbiy xizmatchilarning o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi uchun nazariy va amaliy mashg'ulotlarni hamohang olib borishga e'tibor qaratamiz. Jamoa va yakka tarkibdagi mashqlarga ularni jalb etamiz. Qolaversa, o'quvlar nafaqat kunduzi, balki tunda ham olib boriladi.

masalalarni inobatga olgan holda, o'quv savollari noqulay sharoitda – kunduzgi va tungi vaziyatlarda amalda ko'rib chiqiladi.

Kelgan kunimizdan buyon hamrohlik qilib kelayotgan podpolkovnik Rahmat Daminov guruhning amaliy mashg'ulotlarni bajarish borasidagi harakatlarini kuzatishga taklif qildi. Darrov rozi bo'lib, ular bilan yo'lga tushdim. Harbiy xizmatchilar jangovar shay holda: qo'lida o'zlariga biriktirilgan qurol, yelkasida yuk xaltasi. Oldinroqda guruhning ikki a'zosi razvedka ishlarini olib bormoqda.

– qirga qarab ketar ekanman, oddiy bir mashg'ulotga ham shu darajada jiddiy qaraydimi, nima keragi bor shunchalik ehtiyotkorlikni, derdim ichimda. O'ylarimni ko'zlarimdan o'qigandek podpolkovnik Daminov yelkamdan turti-da:

– Vatan bizga – har birimizga ishonib, egnimizga harbiy libosni kiydirdi, – dedi u past ovozda.

– Unga munosib bo'lish uchun mana shu yordamiz. Bilishimcha, yigitlarning harakatlari sizda savollar keltirib chiqaryapti.

Biz guruhdan o'n qadamlar ortda qolgandik.

uchun turtki beradi. Bu ko'nikmalar o'z-o'zidan shakllanadimi? Yo'q, bu mashg'ulotlarda, o'rganishlarda, izlanishlarda shakllanib boradi.

Aka, mana nima uchun harbiy xizmatchilar guruh tarkibidagi kichik o'quvlarga ham bu darajada jiddiy qaraydi! Ular kichik narsalardan ham katta tajribalar to'plash uchun izlanadi. Xullas, savollarning ildizini o'shanda topgandek bo'ldim.

Guruh yetakchisi qo'lini ko'tarib, hammaga o'tirish, ortiqcha shovqin ko'tarmaslik ishorasini berdi. Keyin aloqachi va yordamchini yoniga chorladi. Xarita ochilib,



nishonlar turgan joy belgilandi. Demak, dastlab merganlar hujumni tashkil etadi. Shundan so'ng qolganlar maydonga bir-birini himoya qilgan holda kirib boradi.

– Buyog'i qiziq bo'ladi, – dedi chap tomonimda tizzalab o'tirgan podpolkovnik pichirlab. – Hozir bo'ladigan sahna jangovar kinolardagidan qiziqroq bo'ladi. Hammasi haqiqiy.

Men unga qarab kulib qo'ydim. Lekin yuragim urishi o'zimga ham eshitilardi. Hayajon butun vujudimni qamrab olgan. Nafas olishimni-da nazorat qilardim: kalta-kalta va sekin.

Merganlar ma'lumot berishni boshladi:

xizmatchilar bir-birini panalab, ro'parasidan to'satdan chiqayotgan nishonlarni yakson etardi. Bo'layotgan mashg'ulotni hayrat va hayajonda kuzatar ekanman, niqoblash uchun tashlangan tutun ichida qolib ketganimni ham sezmay qolibman.

– Mashg'ulotlarga hech qachon yuzaki qaramaymiz, bunga haqqimiz ham yo'q, – deydi kichik serjant Shahzod Ibodullayev. – Chunki haqiqiy ko'nikmalarni mana shu joyda o'zlashtiramiz. Jamoa bo'lib ishlashni o'rganamiz. Kasbimizning faxrini tuyamiz. Ochig'i, ayrim hollarda vazifalarda oqsashlar kuzatilishi mumkin. Bu tabiiy hol. Ammo ana shu

olayotgan nafasim ham qattiq va qo'riq. Tomog'im qotib qoldi. Lablarim quriy boshlagan. Avvaliga o'quvlarda harbiy xizmatchilar tomonidan bajarilayotgan vazifalarga qarab, maza qilgan bo'lsam, endilikda issiqdan hushimdan ketayotgandek edim go'yo. Yuragimga vahima o'rlab, manzilga yetib borolmasam kerak, degan xayollar qurshovida qoldim. Shu sabab markazga qarab yurib ketdim. Aniqrog'i, chopdim. Yo'l olis va mashaqqatli bo'lib tuyilardi. Suvga yetib kelib, yutoqib ichdim. Qorong'ilikdan yorug'likka chiqqandek ko'zim ochildi. Miyamdagi tumanlar tarqadi. Ancha vaqtdan keyin harbiy xizmatchilar yetib keldi. Ularning ko'zlariga qarar ekanman, hech qanday charchoq, tashnalikni sezmadim.

Miyamga tosh kelib urilgandek bo'ldi, aka. Tilim tanglayimga yopishdi-qoldi. So'z deganini esdan chiqardim. Ochig'i, o'shanda o'zimga juda rahmim keldi. Ruhim cho'kdi. Hatto bekor ularga qo'shilib keldim, degan xayolga ham bordim. Atrofda o'tirgan harbiy xizmatchilarga yerlab qarar ekanman, ular hamon tetik, hech qanday charchoqni his qilmayotganini yaqqol ko'rib turardim.

Shunday qilib, birgina harakatim bilan, aniqrog'i, hayotning, yuragimning bo'lmag'ur buyrug'ini bajarganim uchun nomard degan tamg'a bilan qolayotgandim. Aka, siz bu hisning qanchalar azobli ekanini bir o'ylab ko'ring. Ha, men tashnalikning qurboni bo'lib, jamoani erta tark etgandim. Ularni



– Nishonni ko'ryapman, ikkita. O'tishga ruxsat so'rayman.

– Ruxsat! – dedi guruh komandiri.

Merganlik miltig'ining tepkisi bosildi. Kutilmaganda otilgan o'q ovozidan tizzam titrab ketdi.

Keyin komandir minomyot hisobining harakatlanishini aytdi. Ko'p o'tmay, nishonga snaryad borib tushdi. Uning gumburlagan ovozi atrofni larzaga keltirdi. Asosiy nishonlarga berilgan talafotdan so'ng mana endi guruh ikkiga bo'lingan holda obyektga yaqinlasha boshladi. Avtomatdan o'qlar uzilmoqda. Harbiy

kamchilikni tezda tuzatish uchun hammamiz birgalikda harakatlanamiz. Tarkibimizda "men" degan qarash yo'q. Hamma guruh uchun birikadi. Bu, o'z navbatida, keyingi natijalarni belgilab beradi. Komandirning harakati qolganlarning ishonch belgisi hisoblanadi.

Aka, hech suvsiz qolganmisiz? Gap shundaki, o'sha kuni men chanqoqdan tamoman ado bo'ldim. Biz doimiy joylashuvdan ancha uzoqlab ketgan edik-da. Olgan suvimiz ko'p o'tmay tugab qoldi. Quyosh yanada yaqin kelgandek edi. Havo shunaqangi issiqki,

– Ahvolingiz yaxshimi? – dedi katta leytenant Qilichbek Fozilov tashvishlanib.

Hammasi joyida ekanini ishoralarda ko'rsatdim.

– Issiqqa ko'p ham chidamli emas ekansiz, a? – dedi u jilmayib. Keyin: – Bir narsadan qattiq xavotirga tushsangiz, yurakda u kuchayadi, miyaga bo'lmag'ur signal – taslim bo'lish buyrug'i ketadi. Shuning uchun kishi avvalo hislarini boshqarishni o'rganishi kerak. O'shanda bugungidek jang o'rtasida hamrohlaringizni tashlab qochmaysiz.

yarim yo'lda qoldirib, yolg'iz ketdim. Ammo qayergacha bora oldim? Oxiri yo'q manzilga yetdim xolos. Bo'rilar bunday qilmaydi, aka. Chunki ular guruhi uchun qayg'urib yashaydi. O'ljani birga tutadi, ushlaganini birga baham ko'radi. Qahratondan-u saratondan birga o'tadi. Qisqasi, men bo'rilardek bo'la olmadim. Balki, siz ularga o'xsharsiz, a? Yoki sheriklarini mendek tashlab qochadigan nomardmisiz?

Kapitan Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"



O'quv-uslubiy yig'in

MA'NAVIY RIVOJLANISHDAN JISMONIY CHINIQLASH SARI

Navoiy viloyatining Zarafshon shahrida joylashgan harbiy qismda Mudofaa vazirligi qo'mondonligi tasarrufidagi qo'shima va harbiy qism komandirlarining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari, bo'lim va bo'linma boshliqlari hamda harbiy psixologlar ishtirokida o'quv-uslubiy yig'in bo'lib o'tdi.

Uch kun davom etgan yig'in saf ko'rigi bilan boshlanib, unda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlarining saf tayyorgarligi bo'yicha bilim va ko'nikmalari amalda sinovdan o'tkazildi.

Yig'in doirasida harbiy qism madaniyat markazida ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlarini tashkil etish tartibi, harbiy qismlarda huquqbuzarliklarning oldini olish, jangchining jangovar va axloqiy-ruhiy tayyorgarlik masalalari bo'yicha soha mutaxassislari tomonidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.

Kunning ikkinchi yarmida yig'in ishtirokchilari harbiy qismda harbiy xizmatchilarning xizmat vazifasini o'tashi uchun yaratilgan qulayliklar va shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishtirildi.

Harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash maqsadida o'tkazilgan turnikda tortilish, qisqa va uzoq masofalarga yugurish kabi turli jismoniy mashqlar hamda jamoaviy sport musobaqalari yurt posbonlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratib, ularda iroda va qat'iyatlilik kabi fazilatlarini rivojlantirgani bilan qimmatli bo'ldi.

O'quv yig'inining uchinchi kuni dala-o'quv maydonida davom etdi. Bu yerda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlari ishtirokida harbiy xizmatchilarning ekstremal



sharoitlarda to'g'ri va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish, yagona to'siqlar yo'lagidan o'tish, zamonaviy jang sharoitida harakatlanish bo'yicha ko'rgazmali mashg'ulotlar tashkil etildi. Mashg'ulotlar davomida ishtirokchilar hamjihatlikda harakat qilib, harbiy birodarlik ruhini yanada mustahkamladi.

Shuningdek, o'q otish va texnik tayyorgarlik mashg'ulotlarida turli normalarni bajarish bo'yicha ham sinovlar o'tkazildi.

Kun so'ngida esa Zarafshon shahri hokimligi, madaniyat bo'limi hamda hamkor tashkilotlar ishtirokida harbiy xizmatchilar uchun gulxan atrofida madaniy ko'ngilochar dasturlar uyushtirildi. Harbiy xizmatchilar tomonidan tayyorlangan sahnaviy chiqishlar barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Umuman olganda, mashg'ulotlar davomida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlari o'z fikr va ilg'or tajribalari bilan o'rtoqlashib, bilim va malakasini yanada mustahkamladi.

Yakunda o'tgan davr mobaynida yo'l qo'yilgan kamchiliklar tahlil qilindi, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi. Faol ishtirok etgan bir guruh ofitserlar diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

TOQQQ matbuot xizmati

“Jadidlarning ma’naviy qahramonligi” tanloviga

KELING, O‘ZGARISHNI O‘ZIMIZDAN BOSHLAYLIK!

Ommaviy axborot vositalaridami, xalqaro yoki mahalliy biror bir ma’naviy-ma’rifiy tadbirdami, oddiy gurunglardami buyuk ajdodlarimiz haqida gap ketsa, maqtanishni joyiga qo’yamiz. Ularning jahon sivilizatsiyasiga qo’shgan hissalarini men sendan ko’proq bilaman degandek, bir-birimizga gap bermay, tarixiy dalillarni qalashtirib tashlaymiz. Kitob o’qishga uquvi kamroq millatdoshimiz ham buyuk bobolarimiz to’g’risida butun dunyoga mashhur bo’lib ketgan tarixiy dalillarni biladi.

Albatta, har bir millat o’z ajdodlari bilan faxrlanishga haqli. Kim nima degan taqdirda ham, kimdir tan olib, kimdir tan olmay, bo’lar-bo’lmas asossiz vajlarni chaynab yotganda ham odil hakam – tarix o’z bahosini berib bo’lgan va bu o’zgarmaydi! Biz haqli ravishda o’z buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanamiz!

Bugungi kunda buyuk ma’rifatparvar jadid bobolarimiz haqida ham holatimiz shunday. Bilganimiz Abdulla Avloniy ta’lim-tarbiya sohasining yetuk namoyandasi: **“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”**, degan, Mahmudxo’ja Behbudiy “Padarkush” pyesasi muallifi, o’zbek teatrchiligi va yangi usul maktablari asoschilaridan, Munavvarqori Abdurashidxonov yetuk muallim, Usmon Nosir ozodlik kuychisi, Abdulla Qodiriy o’zbek romanchiligi asoschisi, “Moziyga qaytib ish ko’rmoq xayrlidir”, deb bizlarni ogohlantirgan va hokazolar.

Qachonki, Prezidentimiz **“Biz jadidlik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o’rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko’p o’rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko’p savollarga to’g’ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ’ib etsak, xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”**, deb da’vat etganidan so’nggina jadidlar bo’yicha juda keng qamrovli o’rganish, tadqiqot ishlari boshlandi. Ungacha esa faxrlanishdan ortiqroq ish qila bilmadik.

Ha, afsuski, so’nggi 100 yilda faqat ajdodlarimiz bilan faxrlanyapmiz. Ajdodlarga munosib avlod sifatida ulardan o’zib ketadigan, dunyoni qoyil qiladigan olamshumul ishlarni hali qila olganimiz yo’q. Bu bilan bir joyda turibmiz, o’qimayapmiz, rivojlanmayapmiz demoqchi emasman. Ko’plab sohalarda (*ayniqsa, yakka sport turlarida, fan olimpiadalarida*) tengdoshlarim va ukalarim jahon miqyosida erishayotgan yutuqlari bilan tomirimizda tarixiy buyuk shaxslarning qoni oqayotganini isbotlab kelmoqda. Ularga alohida tashakkurlar bo’lsin. Lekin bu ishlar yetarli emas-da! **Biz bundan ortiqroq ishlarni qilishga qodir xalqmiz.**

Rus yozuvchisi Lev Tolstoyning bir fikri bor: **“Hamma dunyoni o’zgartirishga harakat qiladi, lekin hech kim o’zini o’zgartirish haqida o’ylamaydi”**. Jadid bobolarimiz haqidagi ma’lumotlar bilan tanishar ekanman, ularning hech biri faqat bir sohada faoliyat yuritgani va yuksak natijalarga erishganini

emas, balki bir qator sohalarni to’liq o’rganish barobarida hayotga tatbiq etish, ozod va farovon hayot qurish, millatni savodli, ziyoli qilish, jahon miqyosida o’z o’rni va so’ziga ega bo’lgan mustaqil davlat barpo etish, kuchli qo’shin tuzish uchun barcha qiynoq va tuhmatlarga chidagan, to’siqlarni mardonavor yengib o’tgan, o’z tanlagan yo’lidan qaytmagan, bu yo’lda ham ilmini, ham sarmoyasini sarf etgan, fidoyilik ila maktab, kutubxona, teart va nashriyotlar ochgan, hatto shirin jonidan kechib, o’limga tayyor bo’lgan insonlar sifatida ko’z o’ngimda gavdalandi.

Ularning asosiy g’oya va maqsadlari nimalardan iborat edi?

1. Turkistonni o’rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish.
2. “Usuli qadim”ni inkor etgan holda o’lkani, xalqni, millatni zamonaviy mutaraqqiy yo’lga olib chiqish.
3. Milliy davlat bunyod etish.
4. Konstitutsion parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish.
5. Turkiy tillarga davlat maqomini berish.
6. Milliy pul birligi va milliy qo’shin tuzish.

Bu g’oya va maqsadlarni amalga oshirish yo’lida ular qanchalar qiyinchiliklarga duchor bo’lgani, zahmat chekib, ma’naviy qahramonlik ko’rsatganiga guvoh bo’lamiz. Keling, shu o’rinda tarixiy dalillarga murojaat qilaylik. R. Shamsutdinov va X. Mo’minov hammuallifligidagi “O’zbekiston tarixi” kitobida jadid bobolarimizning jasorati haqida shunday tarixiy dalil keltiriladi: **“Jadidlarning 1916-yil mardikorlikka olish voqeasiga munosabati g’oyatda e’tiborga molikdir. Mardikorlikka jo’natish haqidagi oq podsho farmoni (1916-yil 25-iyun)ni bekor qildirish uchun Asadullaxo’jayev Ubaydullaxo’ja rus revolyutsioneri – demokrati V.A. Chaykin bilan birga mahalliy millatparvar boy Mirkomil Mirmo’minboyevning mablag’i, homiyligida Peterburgga boradi. Davlat dumasining 1916-yil dekabrda majlisida farmon Rossiya imperiyasining qonunchiligida ko’rsatilgan hollarga zid ravishda qabul qilingani isbotlab berildi. Farmon Dumada muhokama qilinguniga qadar iyun-avgust oyida jadidlarning harakati orqali bir necha eshelon to’xtatib qolindi. Jadidlarning mardikorlikni qaytarishga urinishlari 1917-yil Fevral inqilobi boshlanishi bilan to’la amalga oshdi...”**

Yana bir tarixiy dalil, bundan roppa-rosa 111 yil burun Toshkent shahrida Mahmudxo’ja Behbudiyning “Padarkush” pyesasi asosida sahnalashtirilgan birinchi o’zbek

tilidagi spektakl boshlanishidan avval “usuli jadid” maktabining muallimi Munavvarqori Abdurashidxonovning millat ma’naviyatini yuksaltirish yo’lida so’zlagan nutqidan olingan parchaga e’tibor qarataylik:

...Siz, hurmatlilarga teatr xususida bir necha so’z aytmakka jasorat qilib, qarshilaringizga chiqdim. Bu xususda manim gustohona harakatimni afv etmagingizni ojizona rijo qilurman.

Bizni Toshkand shahrida bir necha martabali teatrlar o’ynalg’on bo’lsa ham, xolis Turkiston tilida hanuz bir teatr o’ynalmag’onligi barchamizga ma’lumdir. Shu sabab ba’zi kishilarimiz teatrga, ehtimolki, o’yinbozliq yoxud masxarabozlik ko’zlari ila boqurlar. Holbuki, teartning asl ma’nosi “ibratxona” yoki “ulug’lar maktabi” degan so’zdir. Teatr sahnasi har tarafi oynaband qiling’on bir uyg’a o’xshaydirki, unga har kim qarasa, o’zining husn va qabihini, ayb va nuqsonini ko’rub, ibrat olur.... Na uchun o’z tilimizda teatrlar yasab, oramizda bo’lg’on buzuv odatlarni yo’q qilmoqqa harakat qilmaymiz? Na uchun Turkistonda birgina bo’lg’on jamiyatimizni va faqirlikdan inqirozga yuz tutgan maktab va madrasalarimizni obodlig’ig’a sa’y-u kushish qilmaymiz? (“Ishonch” gazetasining 2025-yil 22.04. 50-sonidan olindi).

Maktab va nashriyotlar faoliyatini yo’lga qo’yish qanchalar mashaqqatli bo’lgani to’g’risida Avloniyning o’z tarjimaiy holidagi qayd bilan tanishganimizda millatni uyg’otish, uni savodli qilish yo’lidagi harakatlar jadidlarga juda qimmatga tushganiga guvoh bo’lamiz. 1908-yilda Avloniyning Miroboddagi maktabi yopiladi. Bu haqda u o’z tarjimaiy holidagi yozadi: **“Maktabimda yer, odamlar, tog’ toshlar, daryo, osmon haqinda suhbatlar o’tkazmoqqa harakat qilganimni Mirobod johil kishilari bilishib, meni kofir bo’lding, deb maktabimni yopdilar...”** Avloniy o’sha vaqtdagi holatini tasavvur qiling. Johillarga qanday tushuntirish mumkin?!

Tarixiy dalillar bilan tanishib, xulosam shunday bo’ldiki, jadid ma’rifatparvar bobolarimizdagi yagona umumiy xislat ular o’zgarishni o’zlaridan boshlaganida menimcha. **Bugungi kunda bizga yetishmayotgan narsa ham aynan o’zgartirishni o’zimizdan boshlamayotganimizda nazarimda.**

Harbiy shifokorman. Meni o’qitib tarbiyalagan shu yurtning, shu xalqning bir farzandi sifatida yurtdoshlarimizdan kimdir dardiga shifo izlab o’zga yurtga ketayotgan ekan, **men o’zimni ajdodlarga munosib avlodman, deyishga**



haqqim yo’q, deb o’ylayman.

O’zgarishni o’zimizdan boshlashim, o’qib-o’rganishim, yurtdoshlarimiz shifo izlab xoriyga emas, xoriyliklar shifo izlab tibbiyot otasi Ibn Sinoning yurtiga kelishiga erishmaguncha to’xtamasligim kerak, deb hisoblayman. Men kabi tibbiyot sohasida faoliyat yuritayotgan, nafaqat tibbiyot, balki boshqa sohalardagi tengdoshlarim ham xuddi shunday tinimsiz harakatda bo’lmog’i lozim.

Biz – Yangi O’zbekistonni barpo etish yo’lidagi katta kuch bo’lgan yoshlar jadid bobolarimizga munosib avlod bo’lish uchun, har birimiz o’zgarishni o’zimizdan boshlashimiz, bir yoqadan bosh chiqarib, bobolarimiz orzu qilgan, tarixiy to’siqlar, qatag’onlar sabab oxiriga yetmay qolgan, millatni yuksaltirish yo’lida bedor bo’lishimiz kerak. Mana shu tarixiy ishni bajarish bizning avlod yelkasiga tushgan bo’lsa, ne ajab. **“Har bir ishning boshlanishi shu ishning deyarli yarmi bajarilgani bilan barobardir”**, degan edi buyuk faylasuf Arastu. Har qanday buyuk ishlar esa albatta mayda ishlardan boshlanadi.

Keling, aziz tengdoshim, do’stim, ukam, qo’lni qo’lga beraylik. Yurt taraqqiyoti, jadid bobolarimiz ruhini shod qilish yo’lida birlashaylik! O’zgarishni o’zimizdan boshlaylik! Oqqan daryo albatta yana oqadi. Ishoning, biz uddalaymiz!

So’zimni Iqbol Mirzoning jadidlar to’g’risidagi she’ridagi bir parcha bilan yakunlamoqchiman:

*O’shalar bizning bobolarmikan?
Bizdan o’zlarini topolarmikan?
Bizni nabiram deb tan olarmikan?
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.*

**Tibbiy xizmat leytenanti
Ahrorxo’ja NO’MONXO’JAYEV,
Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot
akademiyasi internatura
tinglovchisi**

“Vatanparvar” mehmoni

BUGUNGI KUN JANGCHISI AQL, QALB VA VIJDON SOHIRI ~ INSONDIR

So'z seni suhbatga chorlaganda oyog'ingni qo'lga ol-u, yugur! Suhbatdoshing so'zning zalvorini his qilgan inson bo'lsa sen uchun ikki karra bayram. Hamsuhbatim O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo ekanini eshitganimdan so'ng quvonib ketdim, qo'rquv ham yo'q emasdi. Chunki bu inson bilan shunchaki suhbatlashib bo'lmaydi. Vaqtini behuda olib, har doimgi dasturxon gaplar bilan boshini qotirish esa yaxshi jurnalistning ishi emas.

Suhbatni faqat adabiyot bilan bog'lashning o'zi kamlik qilishini tushunib, shoirimizning Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi ekanini ham inobatga olib, savollar yo'llashga kirishdim.

– Assalomu alaykum, ustoz! Bugun O'zbekiston armiyasida vatanparvarlik masalasi kun tartibida turibdi. Ammo bu tuyg'uni inson qon-qoniga, qalbiga singdirish oson emas. Sizningcha, buning sinovdan o'tgan samarali mexanizmlari bormi?

– Assalomu alaykum! So'zsiz, doimiy kun tartibida turadigan masalalar bo'ladi. Vatanparvarlik, Vatan himoyasi yo'lida fidoyilik butun insoniyat oldida turgan umumiy masala, muqaddas tuyg'ular. Bu tuyg'u, avvalo, insonning Vatanga, el-yurtiga, tarix va kelajakka sadoqati bilan o'lchanadi. Shu bois vatanparvarlikni hayot tarzi sifatida qabul qilish kerak.

Bu shunday masalaki, qarama-qarshi pozitsiyalar bor. Keyingi paytlarda shunday qarashlar paydo bo'ldiki, butun Yer yuzi Vatan, go'yo inson qayerda yaxshi yashasa, o'sha joy uning Vatani. Bir geografik hudud uchun, o'zi tug'ilgan joy uchun jonini fido qilish kerak emas, shart emas, arzimaydi, degan qarashlar ham bor. Bular asosan G'arb ta'sirida shakllanmoqda. Ayniqsa, yoshlar – bugungi zed avlod o'rtasida mana shunday qarashlar keng yoyilgan. Holbuki, bizda hech qachon bunday tushuncha bo'lmagan. Qadriyatlarimiz, tariximiz, dunyoqarashimiz bunga mos kelmaydi.

Vatan deganda biz geografik hududni nazarda tutmaymiz yoki xaritada chizilgan joynigina tushunmaymiz. **Biz Vatan deganda, eng avvalo, ota-ona, farzandlar, ajdodlar, muqaddas xotiralar, qadimiy an'analar va kelajak avlodlar oldidagi javobgarlikni his qilamiz.** Bu yurt men uchun qadrlı, chunki bu tuproqda ota-bobom, ulug' ajdodlarimning qabri bor, deymiz. Bizni dunyoga keltirgan ajdodlar shu tuproqda qo'nim topgan. Shuning uchun ham tuproq muqaddas. Men uchun bu tuproqning boyligi mana shu bilan o'lchanadi. Mana shu tuproqda yotgan bevosita qarindoshlarimdan tashqari buyuk bobolar, ulug' avliyolar, shoirlar, sarkardalar – bularning hammasi men uchun Vatan! Endi shu vatanparvarlikni yoshlarimiz qon-qoniga, siz aytganday, yuragiga singdirish uchun nima qilish kerak?

Bu borada shunday hikmat borki, ayni holatga to'la mos tushadi: “Bolangni emas, avval o'zingni tarbiyala”. Afsuski, biz boshqa ishni o'ylay turib, boshqa ishni maqsad qiladigan odamlarmiz. Bizda shunaqa hissiyot, shunaqa tuyg'ular shakllanib

qolgan. **Biz o'zimiz Vatan uchun jonini fido qilishga tayyor inson sifatida namuna ko'rsata olsak, farzandlarimizdan buni so'rash yo talab qilish kerak bo'lmaydi. Ular o'z-o'zidan vatanparvar bo'lib tarbiya topadi.** Biroq biz ularga “Vatanni sevishing kerak”, desag-u, o'zimiz manfaat uchun Vatanga xiyonat qilsak, talon-toroj qilsak, chet ellarda turli nojoiz harakatlar bilan Vatan nomini bulg'asak, sharmanda qilsak, u holda bu faqat ikkiyuzlamachilik bo'ladi, xoinlik bo'ladi. Vatanga qilingan eng katta xoinlik uning obro'sini to'kish, millat sha'niga dog' tushirishdir.

Shuning uchun ham bu qiyin, og'ir masala. Barchasi tarbiyadan boshlanadi. Barchasini bola go'dakligidan – oiladan, bog'chadan, maktabdan boshlash kerak. Yana aytaman, buning uchun avvalo tarbiyalovchining o'zi tarbiyalangan bo'lishi shart. Sinovdan o'tgan eng oddiy va eng samarali mexanizm mana shu.

– Zamonaviy jangchida bilim, aql, madaniyat uyg'un bo'lishi lozim. Buning uchun harbiy ta'lim tizimida qanday islohotlar zarur, deb o'ylaysiz?

– Ikki-uch yil avval Oliy Majlisda maktablarda harbiy ta'limni tubdan isloh qilish masalasini ko'targandim. Xususan, maktablarda ko'rgazmali harbiy qurollar, o'q otish maydonlari – tirlar bo'lishi, harbiy tayyorgarlik amaliyotga yaqinlashtirilishi kerak, deb taklif bergandim. Afsuski, ayrim saytlar, nomdor axborot manbalari bu fikrni noto'g'ri talqin qildi: go'yo men maktablarda qurol tarqatishni taklif qilgan ekanman. Nimayam derdik, ularga mazmun emas, Vatan emas, oldi-qochdi gap, shov-shuv kerak.

Mening hali ham fikrim qat'iy: maktablardagi harbiy ta'lim tizimi ko'ngildagidek emas. O'g'il bola haqiqiy qurolni qo'lida ushlab ko'rmasa, uni qanday ishlatishni bilmasa – umuman, ovchilik zavqi degan tushuncha bor, agar bolada shu shakllanmaydigan bo'lsa – hech qanday erkaklik tuyg'usi ham bo'lmaydi. **Himoya hissi so'z bilan emas, tajriba bilan shakllanadi.**

Biz 9-10-sinflarda o'qigan davrimizda poligonga borib, avtomatdan o'q uzganmiz. Bungacha yarim yil tayyorgarlik bo'lgan: nazariy bilimlar, fikr almashuvlar. Hayajonini boshdan kechirganmiz. O'sha hayajon ichida yashaganmiz. Otganimizdan so'ng o'sha mashq bir umr esimizda qoldi. Bir o'qni otting-u, xuddi Bobotog'ning cho'qqisini ag'dargan Alpomishday, boshqa odamga aylanding. O'smirdan yigitga aylanding.

Shu bois harbiy ta'limda jiddiy islohotlar zarur. Bu sohada faqat nazariya bilan cheklanish mumkin emas. Harbiy fanni o'rgatadigan

mutaxassis – harbiy xizmatni amaliy o'tagan, hayotni ko'rgan, bilimli, oliy ma'lumotli bo'lishi kerak. Har bir maktabda shunday kadrlarni ko'paytirish, ularning salohiyatidan samarali foydalanishimiz zarur. Chunki zamonaviy jangchida bilim, aql va madaniyat uyg'un bo'lmasa, u jismonan emas, ma'nan ham kuchli bo'la olmaydi.

– Harbiy xizmatchilar orasida jasorat va sadoqat kabi fazilatlarini keng targ'ib qilishda adabiyotning, xususan she'riyat va san'atning o'rni qanday?

– Bu juda dolzarb masala. Yaqinda internetda Ukrainaning harbiy qo'shiqlari joylangan videolarga ko'zim tushdi. 9-may arafasida g'alabaga qo'shgan hissalarini namoyon qilishmoqchi bo'ldimi yoki harbiy ruh borligini ko'rsatishmoqchi edimi – xullas, bir qancha harbiy qo'shiqlari bor ekan.

Bizda-chi? Bizda shunday harbiy qo'shiqlar bormi? Bir paytlar, Ikkinchi jahon urushi davrida jangga qo'shiq bilan kirilgan. Mayli, mafkurasi boshqa masala, u tuzumning ishi boshqa masala, hatto urushning mohiyati boshqa, biroq “Вставай, страна огромная” yoki “Катюша” kabi qo'shiqlar jangchiga ruh va kuch bag'ishlagan. Masalan, “Катюша” bir qarasangiz, sevgi haqidagi qo'shiqqa ham o'xshaydi, odamga qanchalar zavq beradi.

Biz ham bu borada harakat qilyapmiz: harbiy qo'shiqlar bo'yicha tanlovlar o'tkazilyapti, yangi asarlar yaratilyapti. Biroq asosiy muammo – musiqaning milliy ruhda emasligi. Marsh janridagi qo'shiqlar ko'pincha bir xil: so'zlari boshqacha bo'lsa-da, ohangi o'sha o'rischa uslubni takrorlaydi. Tinglaganday bo'lasiz, lekin yuqmaydi, qalbga yetib bormaydi.

Lekin shuni ham tan olish kerak, she'riyat va adabiyot sohasida yaxshi asarlar yaratilyapti. Ularni harbiylarimizga yetkazish, to'g'ri talqin qilish, to'g'ri o'qitish kerak. Men bir majlisda Oliy Bosh Qo'mondonimiz Shavkat Miromonovichga **“Eng ko'p kitob o'qiydigan qatlam harbiylar”**, degan edim. Haqiqatan ham shunday. Faqat ularning qo'lga qanaqa kitob, qanday adabiyotni berish masalasi bor. Xuddi taomga o'xshaydi. Odamga shunchaki qorinto'ydiga kaloriyasi kam ovqat yegizish ham yoki uni kaloriyaga boy sergo'sht taom bilan siylash ham mumkin. Yomoni, zaharlab qo'yish ham hech gap emas. Xuddi shunaqa, zararli kitoblar ham uchraydi. Ularning inson ruhiyatiga ta'siri juda katta. Shu jihatdan mana shu filtrdan, chig'iridan adabiyotni ham o'tkazish kerak. To'g'ri tanlangan adabiyot harbiyni ma'nan boyitadi, jasorat va sadoqat tuyg'ularini yuzaga chiqaradi. Bu esa armiyaning ruhiy-

ma'naviy salohiyatini belgilaydigan asosiy omillardan biridir.

– Bugungi kunda harbiy xizmatchilarning ma'naviy immunitetini oshirishda shoirlar, yozuvchi va ijodkor ziyolilarning o'rni va mas'uliyati nimada, deb hisoblaysiz?

– O'rinli savol. Haqiqiy ijodkor – shoir yoki yozuvchi, Vatanni chin dildan sevsa, harbiy xizmatchilarning hayotini faqat qog'ozda emas, amalda ham his qilishi kerak. Albatta, bu o'rinda erkak ijodkorlarni nazarda tutyapman. Ijodkor jonini ozgina koyitib, harbiylar yoniga borib, poligonlardagi mashg'ulotlarini ko'rib, agar imkon bo'lsa, qatnashib, ularning yotoqxonalari yotib, ovqatlaridan tatib ko'rishi – qisqasi, mana shu jarayonni boshdan kechirishi zarur. Shu yigitlar bilan bir safda ekanini o'zlari ham his qilishi kerak. Shundagina harbiylar ruhiyatini to'la his eta oladi. Bu ikki taraflama bog'liqlik – ijodkorni ruhan yuksaltiradi, harbiyni ma'nan quvvatlantiradi.

Shaxsan men Jamoatchilik kengashi raisi sifatida ko'p bor harbiy qismlarga safar qilganman. Kazarmalarda qolganman, askarlar bilan yonma-yon ovqatlanib, o'q otish mashqlarida qatnashganman. O'sha paytda o'zimni butunlay boshqa kayfiyat, boshqa bir darajada topaman. Chunki **safda turganingda o'zingni askarlarga yaqin sezasan, “men ham Vatan himoyachisi”, degan tuyg'u o'tadi ko'nglingdan va o'z-o'zidan asl tuproqqa, ildizga qaytasan.**

Mana shunday tajribani har bir ijodkor his qilishi kerak. Faqat tashrif, rasm va ma'ruza bilan cheklanib qolmasdan, voqelikni yurakdan o'tkazish lozim. Faqat qalbdan chiqqan so'zgina boshqa qalbga ta'sir qila oladi. Mas'uliyat mana shunda.

– G'oyaviy kurash davrida eng kuchli qurol g'oyaviy quroldir. Siz bu fikrga qanday qaraysiz va bu “qurol”ni mustahkamlash uchun qanday g'oyalar ustuvor bo'lishi kerak?

– Haqiqatan ham, g'oyaviy qurol zamonaviy jang maydonida eng kuchli va ta'sirli omil. Biz uchun eng katta g'oyaviy meros buyuk bobolarimiz, ulardan qolgan tarixiy boylik, ma'naviy qadriyatlardir. Albatta, kimda bor Temur bobo, kimda bor Bobur bobo? Nomlarini bilamiz, afsuski, mohiyatini to'liq anglamaymiz. Ularning qanday qilib bunday buyuk imperiyalar tiklaganini askarlarimizga sodda, oddiy tilda tushuntirishimiz, buning uchun esa avvalo o'zimiz ularning cheksiz aql-zakovati va fidokorligi haqida chuqur tushunchaga ega bo'lishimiz shart.

Bobur Mirzo deyilsa, ko'pchilimiz ko'z o'ngimizga Hindistonda imperiya qurgan, umri Andijon sog'inchida o'tgan, kunlardan bir kuni ota makonidan yetkazilgan qovunni yeb yig'lagan shaxs keladi. Bobur uchun Vatan tushunchasi juda keng edi – faqat Andijon, Farg'ona yo bugungi O'zbekiston, Turkistonni tushungan emas. Kobul ham, bugungi Afg'oniston deb ataladigan joylar ham Vatan bo'lgan. Qachonki, Sind daryosidan o'tgandan keyin musofir bo'ldim, degan.

Sind daryosi – Afg'oniston bilan Hindiston o'rtasidagi chegara bo'lib, daryodan buyog'i uning Vatan hududi sanalgan. Movarounnahr esa Bobur va ajdodlarining muqaddas tuprog'i bo'lgan.

Shuningdek, Afg'oniston buyuk shoirimiz Alisher Navoiyning ham Vatani bo'lgan-ku. O'sha davrda dini va tili boshqacha bo'lgan Hindiston, Xitoy, hatto Vizantiya ham ular uchun begona hududlar emas, balki keng ma'noda Vatanning bir qismi edi. Turkiya ham shular qatoriga kiradi.

Shu sababli Vatan tushunchasini keng qamrovda, tarixiy va ma'naviy jihatdan tushunishimiz zarur. Bobolarimiz qanday buyuk tafakkur va chuqur ong bilan shunday katta davlatlarni barpo etganini o'rganishimiz kerak. Ana shu bilim va g'oyaviy meros bizga mustahkam kuch, ruhiy quvvat beradi. Bu nafaqat harbiylarimiz, balki butun jamiyatimiz uchun juda muhimdir.

– Harbiy qismlarda ijodiy va ma'naviy muhitni yanada rivojlantirish maqsadida Jamoatchilik kengashi raisi sifatida qanday tashabbuslar amalga oshirildi?

– Bir necha yillar muqaddam ilgari surgan takliflarimiz bugun sekin-asta amalda o'z ifodasini topmoqda. O'sha davrda bu imkoniyatlar ancha cheklangan edi. Masalan, o'zbek tilini mukammal bilish bo'yicha tanlov g'oliblariga berilgan mukofotlar rus tilida nomlanardi, ko'p uchrardi. Bunday mantiqsizlikka izoh so'rar ekanman, tayinli javob berishmasdi. Hatto ba'zilar: “Nima bo'пти, rus tili yomon tilmi?” deb himoya qilardi. Albatta, o'zga tilga hurmat bo'lishi kerak, biroq ona tilini o'z o'rniga qo'yib, mukofotlar mazmuni va maqsadi aniq belgilanishi ham lozim edi-da. Shunday mantiqsiz va noto'g'ri yondashuvlar yo'q emas edi.

Mana endi, bevosita bizning takliflarimiz asosida Amir Temur, Bobur Mirzo va boshqa buyuk ajdodlarimiz nomida tanlovlar, shuningdek “Temur tuzuklari” va “Boburnoma” kabi asarlar asosida ta'lim dasturlari, umuman olganda, milliy mafkura armiyamizga kirib kelyapti.

Avval “Vatanga qasamyod” o'zbekcha, ruscha o'qilardi. Bu esa ba'zida savol tug'dirardi: askar kimga sadoqat qasamyodi beryapti – o'z yurtigami yoki boshqa bir davlatga? Axir qasamyod – insonning Vatanga sadoqati, uni asrab-avaylashga bildirgan qat'iy va'dasi. Shukur, bugun qasamyod faqat davlat tilida – o'zbek tilida jarang sochmoqda. Bu lahzada askar o'zining kim ekani, qaysi yurt farzandi ekanini teran his etadi. Ma'naviy muhitni mustahkamlash, milliy g'oyani armiya hayotiga kiritishda bu kabi ramziy islohotlar alohida ahamiyatga ega.

– To'g'ri, Amir Temur davridagi jangchi bilan bugungi zamon harbiy xizmatchisini qiyoslab bo'lmaydi. Sohibqiron minglab jangchilarini o'z qat'iyati va adolati bilan boshqara olgan. Sizning-cha, Vatan uchun ana shunday mard va sadoqatli jangchilarni qanday tarbiyalash mumkin?

– Albatta, Temur bobo davrida tartib va intizom juda qattiq bo'lgan. Masalan, qo'shin o'nlik, yuzlik, minglik va o'n minglik (*tuman*)ga bo'lingan. Agar o'nlikdagi bir kishi qo'rqqulik qilsa, qolgan to'qqiz nafari ham jazolangan. Yigirma kishi jangdan qochsa, ellik kishi qatl qilingan. Bu intizomni saqlash jang maydonida qat'iyatli bo'lish uchun qilingan choralar edi. Shu bilan birga, Temur bobo, Bobur Mirzo askarlarini mukofotlashda o'ta saxiy bo'lgan. Ba'zan misli ko'rilmagan darajada siylovlar qilishgan. Mana shu ikkala omil – jazo va mukofot muvozanati orqali jangchida mardlik, qat'iyat shakllantirilgan.

Temur bobo fath etgan yurtlardagi mard yigitlarni ham o'z qo'shiniga olgan. Bu o'sha davrning ta'biga mos yondashuv edi, u zamonlar sharti shunday bo'lgan: Vatanni himoya qilish va uni kengaytirish qurol bilan, jasorat bilan amalga oshar edi.

Bugun esa biz osoyishtalik sharoitida, mustaqil davlat, mustahkam huquqiy negizlar asosida yashayapmiz. Bugungi kunda Vatanga xizmat qilish faqat maydonda emas, ma'rifatda, bilimda, ilmiy va axloqiy yuksalishda o'z ifodasini topmoqda. Ya'ni **bugungi kun jangchisi aql, qalb va vijdon sohibi – insondir. Shu bois yosh avlodni vatanparvar qilib tarbiyalash uchun avvalo ularning bilim, dunyoqarash va ma'naviy saviyasini oshirishimiz shart. Chunki bilimli inson Vatanning haqiqiy qimmatini anglaydi, uning tarixi bilan faxrlanadi, ertangi taqdiri uchun mas'uliyatni o'z yelkasida his qiladi.**

Masalan, “Qutadg'u bilig”, “Devonu lug'oti-t-turk” kabi asarlarni o'qib, Bobur, Qodiriylarni o'qib, uqib, anglab yetadigan bola provokatsiyalarga uchmaydi. Ikkinchidan, bilimi bor bola Vatan nimaligini his qiladi; bilimi bor bola bosqinchilikning oqibatlarini tasavvur qila oladi; bilimi bor bola, hatto tug'ilajak farzandlarining kamoli, jamolini tasavvur qila oladi...

Agar bolada bilim bo'lmasa, unda iroda ham, xarakter ham shakllanmaydi. Bunday inson jangchi bo'lishga tayyor emas. Bu borada xalqimizda zo'r maqol bor: “Bo'ynidan bog'langan it ovga yaramas”.

– Ikkinchi jahon urushi yillari Hamid Olimjonning birgina “Jangchi Tursun balladasi” minglab o'zbek o'g'lonlarining shioriga aylangan edi. Harbiy xizmatchilar uchun vatanparvarlik, fidoyilik va jasorat mavzularidagi adabiy asarlarga bugun ham katta ehtiyoj sezilmoqda, shunday emasmi?

– Xuddi shunday. Ehtiyoj bor. Yozish kerak, yozish shart. Masalan, “G'alaba bog'i”da abadiy xotiraga aylangan qahramonlar, mustaqillik davrida el tinchligi yo'lida jonini fido qilgan yigitlar haqida dostonlar, balladalar yaratish lozim. Bu asarlar kelajak avlodga ibrat, vatanparvarlik

ruhini yuraklarga singdiradigan kuchli vositadir.

Albatta, har bir yozilgan asar “shedevr” bo'lmasligi mumkin. Ba'zilar zaif chiqadi, taqrizga arzimaydiganlari ham uchraydi. Lekin shunga qaramay, yozish kerak. Chunki aynan shu jarayon ichida bitta zo'r asar, “Jangchi Tursun balladasi”ga teng ta'sirli va zamonaviy ruhdagi adabiy namuna yaratilishi mumkin. Biz ham yozamiz, yozayotgan bo'lishimiz ham mumkin. Eng muhimi, bu yo'lda to'xtab qolmaslik muhim. Chunki har bir yangi asar ma'naviyat sarhadini mustahkamlovchi qal'adir.

– Mana, 13 yildan beri Jamoatchilik kengashiga rahbarlik qilib kelmoqdasiz. Bu vaqt mobaynida armiyamizda qanday o'zgarishlar yuz berdi, deb ayta olasiz?

– Jamoatchilik kengashi tuzilganda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev u paytda Bosh vazir edi. O'shanda kengashning ta'sis majlisini o'tkazarkan, raislikka nomzodimni taqdim qildi. Rosti, avvaliga nima uchun bu ish aynan menga topshirilganini yaxshi tushunmaganman. Balki, Vatan haqida yozgan she'rlarim, qo'shiqlarim sabab bo'lganmi yoki xarakterimdagi biror jihat e'tiborini tortganmi, nima bo'lganda ham, ushbu mas'uliyatli vazifa menga ishonib topshirildi. Keyin u kishining o'zidan so'radim: “O'zbekcha aytganda, nima ish qilish kerak?” Shunda: **“Jamoatchilik kengashi xalq bilan armiya o'rtasida ko'prik bo'ladi”**, deb javob berdi. Mana shu bitta gap menga bu vazifaning mazmun-mohiyati, zimmamda qanday mas'uliyat turganini to'liq anglatdi.

Avvaliga harbiy qismlarga borib, ijodiy uchrashuvlar o'tkazdik. Lekin armiyadagi muhit havas qilarli emas edi. Muhitda zo'ravonlik, qo'rquv hukmron edi. Armiya mustaqil emas, kim-kimlarningdir ta'siri ostida edi. Armiya faqat kun ko'radigan, paxta teradigan paxtakor, o'zi kartoshka qovurib yeydigan shunaqangi bir xo'jalik edi. Armiya shu zayl mehnat armiyasiga aylanib qolgan, biz ham bunga oddiy hol sifatida qaray boshlagan edik.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarlikka kelganidan so'ng amalga oshirgan ilk islohotlardan biri – xalqni, xususan o'qituvchilar, shifokorlar, ziyolilar va harbiylarni paxta dalasidan chiqarib olish bo'ldi. Bu rasmana tarixiy qadam bo'ldi. Endi **armiya faqat o'z vazifasi – Vatan muhofazasi bilan shug'ullanadigan qudratli tizimga aylandi.**

Bugun armiyamiz xalqaro musobaqalarda Xitoy, Rossiya, Amerika, Germaniya, Turkiya kabi davlatlarning armiyalari bilan bellashib, birinchi va ikkinchi o'rinlarni qo'lga kiritmoqda. Bu osonlikcha erishiladigan natija emas. Eng muhimi, armiyaning ichki qiyofasi, ma'naviyati va mafkurasi tubdan o'zgardi. Armiya sifat jihatdan o'sdi.

Ilgarigi harbiylar orasida jisman zaif, qurolni to'g'ri ushlab tura olmaydiganlar ham bo'lgan bo'lsa, hozir bo'yi bir-u to'qson, ikki metrga yaqin baquvvat, azamat yigitlar safda turibdi. Bu natija ham o'z-o'zidan kelmadi: bolalarning dalalardan uyga qaytib, ta'lim va



sport bilan shug'ullana boshlashi, hayot farovonlashib, oziqlanish ratsioni to'g'ri yo'lga qo'yilgani orqali shakllandi. Mana endi pahlavon o'zbek bolalari, ruhan va jismonan barkamol avlod voyaga yeta boshladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, armiya faqat texnik jihatdan emas, ma'naviy jihatdan ham milliy bo'lishi kerak. Bu degani armiya faqat o'zbek tilida gapirishi kerak, degani emas, balki uning ma'naviyati ham o'zbekcha bo'lishi kerak degani.

Bugun armiyamiz safida Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo kabi buyuk siymalarimiz g'oyalari, ruhiyati mavjud.

Kuni kecha harbiylar ishtirokidagi “Vatan manzumi” deb nomlangan tadbirda qatnashdik. U yerda harbiylarning chiqishlari, she'rlari, qo'shiqlari – hammasi bugungi armiyaning qanday ulkan ma'naviy darajaga ko'tarilganini yaqqol ko'rsatdi. Bugungi armiya – o'z safida ma'nan, jismonan baquvvat, vatanparvar yoshlarni birlashtirgan zamonaviy va mustaqil kuch.

– Harbiylar hayotiga bag'ishlangan asarlar yozgansiz, shu kabi asar, film yoki yangi ijodiy loyihalar ustida yana ishlash niyatingiz bormi?

– Yaqinda “Muxtoriyat” deb nomlangan pyesa yozdim. Bu asar Qo'qonda tashkil etilgan Turkiston muxtoriyatining halokati, fojiasi va undan olinishi lozim bo'lgan saboqlar haqida. Pyesada bugungi kun haqida ham mulohazalar bor. Bu faqat 1918-yildagi voqealar emas, balki shu bugun ham ogoh, hushyor bo'lishimiz kerakligini eslatuvchi asardir. Chunki mustaqillik tasodif emas, uni asrash uchun kuchli armiya, mustahkam harbiy salohiyat kerak. Shu ma'noda asarda “Mustaqillikni armiya asraydi” degan mazmunda undovlar, ishoralar, g'oyalar mujassam.

Pyesani sahnalashtirish yo filmga aylantirish niyatidamiz. Shu bilan birga, boshqa she'rlar, qo'shiqlar ham yozyapmiz. Ishonib topshirilgan vazifalar ko'p va bu ishonchni aqlan, qalban oqlashga harakat qilaman. Va doim aytamanki:

*Unvonim – ozod yurt fuqarosiman,
Vatanni onamdek aziz bilaman.
Safda kamarbasta turibman men ham,
Vatanimga sadoqat bilan xizmat qilaman!*

Samimiy suhbat uchun rahmat!

**“Vatanparvar” muxbiri
Muhammadali G'AFFOROV
suhbatlashdi.**

Kelajakka ishonch

VATAN – BOSHINGDAGI SOYABON

“Dunyoda o‘zbeklarday bolajon xalq bo‘lmasa kerak”... Taniqli kinoaktyor Leonid Bronevoy xotiralarida keltirilgan bu jumlar Ikkinchi jahon urushi yillarida amaliy tasdig‘ini topgandi. O‘zbek xalqi 300 mingdan ortiq qarovsiz qolgan bolalarni issiq bag‘riga oldi va butun dunyoga o‘zining yuksak insoniylik xislatini namoyish qildi. Chunki mamlakatimizda azaldan oila va bola qadri juda baland. Ha, bolajon xalq ekanligimiz haqidagi tavsif kim tomonidan va qachon berilganidan qat‘i nazar hamisha mazkur mentalitetimizga boshqa millatlar havas bilan qarab kelgan.

1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan xizmat vazifasini bajarish vaqtida qahramonlarcha halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning farzandlari va oila a‘zolari uchun Oliy Majlis Senati binosida an‘anaviy bayram tadbiri tashkillashtirildi. Xuddi shunday tadbir sal avval “G‘alaba bog‘i”da o‘tkazilgan “MSITF – 2025” festivali doirasida bo‘lib, qalbi o‘ksik bolajonlarga bayram sovg‘alari topshirildi. Ularning chehrasidagi quvonchni, ko‘zlarida porlagan ishonchni ko‘rib, Vatan – murg‘ak qalblar boshidagi soyabon ekanligiga yana bir marta guvoh bo‘ldik. Senat binosiga qilingan ekskursiya bolajonlar uchun haqiqiy bayram sovg‘asi bo‘lgani aniq. Chunki Oliy Majlis deputatlari o‘tiradigan o‘rindiqlarda senatorlar bilan birga o‘tirishni ular umuman kutilmagan vaziyat sifatida qabul qilishdi.

Vatan! Bu muqaddas so‘zni 8 yoshli Shohjahon, 7 yoshli Yodgorbek va Matvey, 4 yoshli Shahzod tilidan eshitish naqadar hayajonli. Ularning barchasi otalarining Vatan uchun jonfido qilganini xuddi kattalardek idrok etishini-chi. Katta bo‘lsam, otamga o‘xshab harbiy xizmatchi bo‘laman. Vatanimga sadoqat bilan xizmat qilaman, degan so‘zlari xuddi qasamyoddek jarangladi. Har bir bola davlat himoyasida ekanini, ta‘lim olishi, sog‘lom va to‘kin hayot kechirishi hamisha e‘tibordaligini anglab yetganini his qilish qiyin emasdi. 1-sinf o‘quvchisi Matvey hamda o‘rta qatorda o‘tirgan 8-9 yoshlardagi bolakay adashib ketmaslik uchun yon daftariga Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Norboyeva va davlatimiz rahbariga bildirgan minnatdorligini yozib olishi ko‘pchilikning e‘tiborini tortdi.

Marhum serjant Alisher Mahkamovning turmush o‘rtog‘i Dilfuza Mahkamova katta qizi Dinara yuridik institutni tugatgani, o‘rtancha farzandi Husnida Ahmadjonova ham shu institutda o‘qiyotgani va o‘g‘li Yahyobek esa harbiy litseyga kirish

uchun tayyorgarlik ko‘rayotganini faxr bilan gapirar ekan, quyilib kelgan yig‘isini bazo‘r to‘xtatib qoldi. Chunki farzandlariga qaratilayotgan e‘tibor ona qalbini to‘lqinlatib yuborgandi.

– Farzandlarim otasidan erta ayrilgan bo‘lishiga qaramay, davlatimiz ularning boshini otalarcha siladi. Ularning imtiyozli o‘qishi uchun imkoniyat berildi. Tarbiyasiga befarq qaramadi. Bugun men ona sifatida qo‘rqmasdan o‘zimni baxtli ayol deya olaman, – deydi Dilfuza Mahkamova.

Tadbir davomida so‘zga chiqqan Senat raisi Tanzila Norboyeva hamda mudofaa vaziri o‘rinbosari

general-mayor Hamdam Qarshiyev Senatning majlislar zaliga yig‘ilgan barcha bolajonlarni, ularning oila a‘zolarini 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan qizg‘in tabriklab, yosh avlod vakillari davlatimiz himoyasida ekanini ta‘kidlab o‘tdi. Tadbir davomida rahbarlar bolalar bilan samimiy suhbatlashib, ularning fikrlari va orzu-istaklarini tinglashdi, kelgusi rejalari bilan tanishdi.

Bolajonlar bayram dasturxoniga taklif etilib, ularga esdalik sovg‘alari topshirildi. Ushbu sayohat bolajonlar xotirasida bir umrga muhrlanib qoladigan bo‘ldi. Eng muhimi, tadbir sababchilari bo‘lgan murg‘ak qalb

egalari va ularning oila a‘zolari Senat binosini kindik qoni to‘kilgan zaminning haqiqiy qo‘riqchisi bo‘lish, egnidagi harbiy libosning yuki, kasbining sharafti, mas‘uliyatini bir lahzaga bo‘lsa ham unutmazlik, o‘z burchini sadoqat bilan ado etish harbiy xizmatchilarga xos fazilatlar ekanini anglagan holda tark etishdi.

Bu kasbni tanlagan marhum otalari kerak bo‘lganda tinch-osuda hayotimiz uchun jonini fido qilishdan tap tortmaganligi, bu yo‘ldan qachondir o‘zlari ham borishlari haqidagi qarori qat‘iylashib qaytdi.

Asror RO‘ZIBOYEV,
“Vatanparvar”



Mangulik umr

Yurtimiz sarhadini buzib kirgan terrorchilar bilan bo'lgan janglarda qahramonlarcha halok bo'lgan farg'onalik harbiy feldsher Qahramonjon MADOLIMOVNING yorqin xotirasi uchun qizi Yodgora QAHRAMONOVA tilidan yozilgan she'r.

Qahramonning qiziman

Onam kuyibdi zor-zor,
Opachamni quchoqlab.
Bobom, buvim azador,
Yig'labdi yurak dog'lab.

So'ngra dunyoga keldim
Ismim Yodgora bo'lib.
Dadamni bir bor ko'rmay,
O'sdim armonga to'lib.

Boqsam onam ko'ziga
Aylanib hasrat, dardi.
Ko'z yosh oqib yuzidan,
Mungli ertak aytardi.

Xotiralar misli gul,
Aslo so'lmas deydilar.
Yurt deb jon bergan jasur
Mardlar o'lmas deydilar.

Vatan har kun, har nafas
Izzat bilan xotirlar.
Elning dilidan ketmas
Dadam kabi botirlar.

Qabrin gullar bezaydi,
Nur to'shaydi oy, quyosh.
Yurtin sevib asraydi,
Mendek armonli izdosh.

Zamira RO'ZIYEVA,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi, shoira

Jang maydonida biror
Do'sti bo'lsa yarador.
Berib shoshilinch yordam,
Bog'lab malham, madadkor.

Ishga kirisharkan tez,
Tongmi va yo yarim tun.
Jangchi do'stlarin bu kez
Umrin asramoq uchun.

Bir jangda safdoshiga
Yordamga shoshilgan dam.
O'q tegib chap ko'ksiga
Yiqilibdi jon dadam.

Ismim mening Yodgora,
Qahramonjon qiziman.
Dadajonin bir bora
Ko'rmagan gulyuziman.


Dadajonim – kiygani
Harbiy libos, pahlavon.
Hayot yo'li qahramon
Ism-u jismi, Qahramon.

Bo'lgan harbiy shifokor,
Ayni yigit faslida.
Bu qalbida ulug'vor
Orzu ekan aslida.

Yurtga yomon niyatli
Yog'iy qadam bosgan dam.
Jangovar safda borgan,
Mening sheryurak dadam.

Mardlik yo'lin tanlagan,
Anglab oliy burchini.
Yuragiga jamlagan
Alpomishning kuchini.

Erta-yu kech olishib,
Olov chirmashib jonga.
Vatanning har qarichi
Uchun kirganlar jangga.



MSITF – 2025

Tasavvurlar olamidan reallikka



Mudofaa sohasidagi innovatsion texnologiyalar festivali (MSITF – 2025). Xuddi men singari ko'plab yurtdoshlarimiz uchun tasavvurlar olamidan reallikka o'tish davri bo'ldi, desam adashmayman. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti "Vatanparvar" birlashgan tahririyatida amaliyotimni o'tamaganimda, balki hali ham o'zimning tasavvurlar olamimda yuraverarmidim. Nega deysizmi? Keling, hammasini bir boshdan, qisqa bo'lsa-da, tushuntirib berishga harakat qilaman.

29-may – 1-iyun kunlari poytaxtimizda "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasida MSITF – 2025 mudofaa sohasidagi innovatsion texnologiyalar festivali o'tkazildi. Unda mudofaa sanoatining zamonaviy texnologiyalari, qurol-yarog', robototexnika, kimyo-texnologiyalari, kon-metallurgiya hamda ikki maqsadli mahsulotlar ko'rgazmasi namoyish qilindi. Shu bilan birga yoshlar uchun

"Kibersport", "Xakerlik ustasi", "Dasturlash", "3D modellash", "Robotlar jangi", "Uchuvchisiz uchish apparatlarini boshqarish", "Raketamodel", "Dron-reysing" kabi ko'plab musobaqalar tashkil etildi.

Agar kimdir festival boshlanishidan bir kun avval uning ishtirokchisiga aylanishim mumkinligini aytganida, to'g'risi, ustimdan kulyapti, deb o'ylagan bo'lardim. Festivalning asosiy voqealari kechayotgan gumbaz





ostiga kirib kelganimda hayratdan besh daqiqalar bir nuqtada qotib qoldim. Ne ko'z bilan qarayki, nigohimda fantastik kinolarda ko'rganimga o'xshash texnikalar. Hammasi haqiqiy! Boshida bularning bari maket bo'lsa kerak degan xayolga ham bordim. Adashgan ekanman. Barchasining oldida texnik tasniflari tushirilgan qo'llanmalar turibdi. Barchasi O'zbekistonda ishlab chiqarilgan. Dastlab e'tiborimni kiraverishda joylashgan zirhli harbiy texnikalarga, keyin esa markazroqda turgan uchuvchisiz uchish apparatlari va o'rtada turgan ikki o'rindiqli samolyotga qaratdim. Haybatli. Bir-biridan mukammal. Bundan tashqari, ismi-jismiga monand deganlaridek

“To'fon”, “Arslon 6x6”, “Arslon 8x8”, “Lochin”, “Chayon” kabi o'zbekcha nomlar bilan atalgani zo'r bo'libdi-da. Yonimda sherigim yo'q bo'lsa-da, atrofimdagi begonalarga qarab, zo'r-a. Ajoyib, degancha maqtanib qo'yardim. Ular orasida ham men kabi hayratini yashira olmayotganlari juda ko'p edi.

Festivalning tantanali ochilish marosimida Mudofaa vaziri general-mayor Shuxrat Xalmuxamedov tomonidan keltirib o'tilgan raqamlardan mudofaa sanoati va O'zbekiston armiyasining salohiyati qandayligini bilib olish qiyin emasdi. Bu borada hamkorlikda faoliyat olib borayotgan mahalliy korxonaning soni ellikka yaqinligi kishini quvontiradi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar soni va sifati festivalga tashrif buyurganlarning ko'zini quvontiradi. To'rt kun davomida shu yerning o'zida yana qanchadan qancha o'zaro shartnomalar tuzilmadi, deysiz.

Festivalning asosiy maqsadi – innovatsion g'oyalarni amaliyotda sinovdan o'tkazish, qo'llab-quvvatlash, yoshlarni zamonaviy texnologiyalarga qiziqtirish va muhandislik sohalariga jalb qilish, shuningdek mahalliy ishlab chiqaruvchilarni mudofaa sanoatiga yo'naltirishdan iboratligi ta'hsinga loyiq. Bu – yaqin yillar ichida milliy armiyamiz O'zbekistonda ishlab chiqarilgan harbiy texnikalar bilan to'ldiriladi, degani! Xayolimga kelgan bu fikrlardan g'ururlanib ketdim. Birin-ketin harbiy texnikalar oldida esdalik uchun rasmga

tushishga ham ulgurdim. Ko'rgazmaga qo'yilgan texnikalar yonida suratga tushayotgan boshqa yurtdoshlarimiz ham menga o'xshab g'urur hissini tuygani aniq. Hatto Ruslan Nuriddinov, Hasanboy Do'smatov, Dmitriy Shokin singari mashhur sportchilarimiz ham bor edi.

“Kiber sport”, “Xakerlik ustasi”, “Dasturlash”, “3D modellashirish”, “Robotlar jangi”, “Uchuvchisiz uchish apparatlarini boshqarish”, “Raketamodel”, “Dron-reysing” kabi musobaqalari uchun tayyorlangan maydonlarda yoshlar o'z iqtidorlarini



namoyish qilish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Ularni kuzatar ekanman, fan va texnika borasida shu qadar rivojlanib ketibmiz-da, deya hayratlanishdan o'zga choram yo'q edi. Ilgari bunaqa innovatsiyalarni faqat internetda yoki televizorda ko'rgan bo'lsam kerak. Xullas, MSITF – 2025 festivali o'z nomiga munosib tarzda kutganimdan a'lo tarzda yakunlandi. U men qatori minglab hamyurtlarimizda olam-olam taassurot qoldirdi. Musobaqalar g'olib va sovrindorlari munosib tarzda pul mukofotlari bilan taqdirlangani festivalga bo'lgan e'tiborni yanada orttirishi tabiiy.

Hojiakbar BEKTOSHEV,
O'zbekiston davlat jahon
tillari universiteti
1-bosqich talabasi



Kelajakka yo'llanma

Har bir mamlakatning ertangi kuni, jamiyatda o'zgarishlarga sabab bo'ladigan salohiyatli resursi va bunyodkorlik g'oyalarini hayotga tatbiq etuvchi eng asosiy kuchi – bu serg'ayrat, shijoatli, ko'zlangan maqsadlari sari olg'a intiluvchi yoshlar hisoblanadi.

berilgani, bu esa mustaqil hayotga qadam qo'yish ostonasida turgan yoshlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochib, ularning yorqin va porloq kelajaklari uchun berilgan yo'llanma ekanini alohida ta'kidladi.

– Albatta, o'z farzandining kamolini ko'rish har bir ota-ona orzusi. Bugun mening qizim Aslzoda ham tavsiyanoma olish baxtiga muyassar bo'ldi. Bundan juda ham baxtiyorman. Qizim qatorida imtiyozga ega bo'lgan barcha farzandlarimizga bunday imkoniyatdan unumli foydalanib, o'z ota-onalariga munosib izdosh bo'lishini, o'qish va izlanishdan aslo tolmasliklarini, kelgusida Yangi O'zbekistonimizning gullab-yashnashi yo'lida tinmay mehnat qiladigan, mamlakatimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shadigan avlod bo'lib yetishishini tilab qolaman, – deydi podpolkovnik Nilufar Ibragimova.

Tadbir davomida topshirilayotgan imtiyozli tavsiyanomalar yoshlarga o'zlari tanlagan ixtisoslik bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishida qanot bo'lib xizmat qilishi va kelgusida bunday baxtga erishuvchi o'g'il-qizlar sonining yanada ortishiga tilak bildirilgach, tavsiyanomalar tantanali tarzda o'z sohiblariga topshirildi.

Shuningdek, tadbirga MDH Chegara qo'shinlari qo'mondonlari kengashi tomonidan a'zo davlatlar harbiy xizmatchilarining farzandlari o'rtasida o'tkazilgan xalqaro bolalar rasmlari ko'rik-tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritgan 5 nafar o'g'il-qiz ham taklif etilib, ularning iste'dodi va xalqaro tanlovda erishgan natijalari e'tirof etildi.

Tadbirning badiiy qismida Chegara qo'shinlari Ashula va raqs ansambli xonandalari tomonidan ijro etilgan yurtga sadoqat, insoniylik va mehr-oqibatni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar ham barchaga birdek bayramona kayfiyat ulashdi.

Shu kabi tadbirlar respublikamiz bo'ylab DXX Chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qism va bo'linmalarda ham tantanali tarzda tashkil etildi.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

Shu boisdan, mamlakatimiz aholisining 60 foizini tashkil etuvchi kelajagimiz bunyodkorlariga qaratilayotgan e'tibor, ular uchun yaratilayotgan shart-sharoit va qulayliklar ko'lami ham kundan kunga ortib bormoqda.

Xususan, bir necha yildan buyon davlatimiz rahbarining tegishli qaroriga asosan, mamlakatimiz sarhadlarini qo'riqlash ishiga munosib hissa qo'shgan, jangovar xizmat faoliyatida yuqori natijalarga erishgan, Vatanga sadoqatli, harbiy mahoratni mukammal egallagan, yuqori intizomli harbiy xizmatchilarning farzandlariga 5 foizli kvota doirasida respublika oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishlari uchun imtiyozli tavsiyanomalar berilayotgani ham har jihatdan yetuk, bilimli va zukko yoshlarni kamolga yetkazishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu munosabat bilan Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari qo'mondonligida o'tkazilgan tantanali tadbirida sarhadlarimiz posbonlari, ularning oila a'zolari va Chegara qo'shinlari mas'ullari ishtirok etdi.

Dastlab, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularga harbiylikning bor mas'uliyati va sharafigini yanada teranroq anglashlariga imkon yaratish maqsadida, shu mazmundagi videoroliklar hamda kliplar namoyish etilgach, tadbirning asosiy qismi boshlandi. Unda so'z olganlar, o'tgan yillar davomida harbiy xizmatchilarning 1 300 nafardan ortiq farzandiga imtiyozli tavsiyanomalar

Ilk hayrat

Qishlog'im haqida kichik hikoya

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti xalqaro jurnalistika fakulteti 1-bosqich talabasi sifatida ikki haftalik amaliyotimni Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti "Vatanparvar" birlashgan tahririyatida o'tadim. Bu davr mobaynida tahririyat xodimlari va ustozlardan ancha-muncha bilimlarni o'rganishga harakat qildim. Mudofaa sohasida innovatsion texnologiyalar festivali (MSITF – 2025) da ham qatnashdim. Quyida "Qishlog'im haqida kichik hikoya" deb nomlangan ilk maqolamni e'tiboringizga havola etmoqchiman.

Oltinsoy. Bolaligimning o'chmas xotiralari yozilgan maskan. Yashil dalalar, shoxlari mevalarga to'lgan bog'larda kechgan kunlarim. Oftobida yuzlari qoraygan dehqonlarning terlari bilan sug'orilgan yer. Oqshom paytida o'choqlardan ko'tarilgan tutunning achchiq hidi. Yulduzli oqshom ostida aytilgan ertaklarning sehrli olami. Sodda va samimiy hayot. Xullas, men ko'z ochib ko'rgan, jannatmakon go'sha.

Navoiy viloyati Xatirchi tumani tog'li hududida joylashgan qishloq. Oltinsoy shimoldan Nurota, janubi-sharqdan Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumani, shimoli-sharqdan Qo'shrabot, janubdan Narpay va Paxtachi tumanlari bilan tutashib ketgan. Bu go'shaning o'ziga yarasha fayzi, takrorlanmas so'lim tabiati bor. Dorivor o'simliklari-yu Langan tog'lari etaklarida yastanib yotgan keng qir-adirlarni aytmaydizmi! Ayniqsa, bahorda. Xuddi yam-yashil o'tloq va alvon lolaqizg'aldoqlardan gilam to'shab qo'yilganmi deb o'ylaysiz. Bolaligim mana shunday jannatmakon go'shada o'tgan.

Har bir tongi o'zgacha tarovatga ega. Quyosh ona zamin uzra nurlarini sochishga ulgurmasdan qishloqda hayot qiziydi. Xo'rozlarning qichqirishi, qo'y-qo'zilarining ma'rashi, podaga haydalgan chorvaning shovqini. Hatto, itlarning hurishi va olis-olisda hangragan eshshakning ovozi ham yoqimli. Har safar uyqudan ko'zlarimni sekin ocharkanman, to'satdan dadamning "O'g'lim, turdingmi?" degan ovozi

qulog'imga chalinardi. Dadam o'ta xushmuomala inson. Ishga ketish oldidan meni ana shunday uyg'otardi. Ko'p o'tmay biz ham buvimdan topshiriqlarini olgan holda, podani haydab Langartog' tomon yo'l olardik. O'sha davrlarda hozirgidek bolalar bog'chasi qayoqda deysiz. Bog'chaga haftada uch kungagina borardik, xolos. Qolgan kunlar ro'zg'or yumushlari bilan kechardi. Men bilgan qishloq hayoti ana shu tarzda o'tardi. Go'yoki kunlar tez aylanib, hash-pash deguncha haftalik poda haydash kuni ham shamoldek kelib qolishini aytmaydizmi. Bizga bu ishda tog'am boshchi bo'lardi. Men esa uning ishonchli yordamchisi, aniqrog'i dastyori edim. Keng qir-adirlar bizni, to'g'rirog'i chorvani ohanrabodek o'ziga chorlardik.

Yozning issiq chillasida joningizga huzur bo'ladigan chaylalar. Ham maroqli, ham foydali mashg'ulotlardan biri – bu chayla qurish bo'lgan. Chaylalaridan iborat qo'nalg'alarimiz qirlar orasidagi mo'jaz shaharchaga aylanardi. Hazillashib bu yerni Bo'rbosh deb atardik. Yotish-turish, o'yin-kulgi, ta'lim-tarbiya, choyxona-suhbat hammasi birgina shu Bo'rboshda. Issiq-sovuqning qizig'i yo'q. Hattoki, uydagilar bilan g'ijillashib qolsak, shu yerdan panohtopardik. Xullas, chaylalar ma'lum bir vaqtga ikkinchi uyimiz bo'lib qolardi. U yerga do'stlar bilan deyarli har kun borardik. Bolalar bog'chasiga borishimiz ham ajoyibotlarga to'la

edi. Bir kun undoq bo'lsa, bir kun bundoq! Bir kun mashinada bo'lsa, bir kun piyoda. Bog'chamiz bizdan biroz uzoqda joylashgandi. Yo'l-yo'lakay G'ani boboning dovchasi, Azamat tog'aning gilosi, Jamshid akaning olmasi va Anvar akaning gujumi oftobdan omon saqlardi.

Ota-onamizning bozordan yoki shahardan qaytishini intiqlik bilan kutganimiz-chi. Ko'zlarimiz ko'cha tomon tikilib, har bir qadam tovushida otamizning yaqinlashayotganini his qilardik. Darvozamiz ochilishini intiq bo'lib poylardik. Otamizni qalbimizda quvonch, yuzimizda tabassum bilan qarshilardik. Ular qo'lida olib kelgan narsalar har safar biz uchun dunyodagi eng qimmatbaho sovg'a bo'lardi. Yillar shu tarzda o'taverar, qishloq hayoti bir me'yorda davom etaverardi. O'sha lahzalar bolalikning eng iliq, eng unutilmas onlari ekanligini, qanchalik qadrlil bo'lganligini endi tasavvur qilyapman.

Qishloqdoshlarimning bari zahmatkash, bari shahar tili bilan aytganda to'pori edi. Ularning kundalik hayotini ko'z oldimga keltirar ekanman, mehnatsevar va sabrli insonlar ekanligiga ishonch hosil qilaman. Tirikchilik ilinjida, farzandlarining tarbiyasi yo'lida tun-u kun mehnatdan qochmaydigan tanti xalq. Hamqishloqlarimning mavsumiy va yillik daromadi deyarli og'ir mehnat ortidan keladi. Shunga qaramay, kimdir hashamatli uy qurish ilinjida. Yana kimdir qimmatbaho mashina olish orzusida. Qo'shnimiz Nizom aka esa uchta farzandining o'qishi uchun to'lanadigan shartnoma summasini topish uchun dalada ter to'kadi. Hamqishlog'im Bobur akaning ishsizligi yetmagandek, oilasi topgan pulni kayf-u safoga sarflaydi. Dehqon Erkin boboga esa kelayotgan yil mo'l-hosil bo'lsa-yu, minib yurgan mashinasini yangilasa. Ergash tog'amda ham bir orzu. Hali hech kim ko'rmagan dabdabali to'y qilsa.

Oltinsoy kishmishlari va mayizlari! Bundan butun bir kitob yozsa bo'ladigan mavzu. "Osh mayiz", "qora mayiz",

"soyaki", "kunaki", "ilma soyaki", "ilma kunaki". Bular mening bilganlarim xolos. Mahalliy mayiz tayyorlash usullari ham boshqa yerda uchramasa kerak. Aytganday, Oltinsoyning qora mayizi nisbatan kichik bo'lishiga qaramay, mazali, yurak, miya faoliyatiga ijobiy ta'sir o'tkazishi ilmiy tomonlama isbotlangan.

Ha, aytgancha, qishlog'imning nima uchun Oltinsoy deb atalishini aytishni unutilman. Nuroniy otaxonlarimizning so'zlariga ko'ra, bunday nom berilishiga uzoq o'tmishdagi voqea sabab bo'lgan. Qishloq hududida bir necha asrlar ilgari sharqirab oqadigan katta soy bo'lgan va undan no'xotdek keladigan oltin donalari topilgan ekan. Keyinchalik bu voqeaning dong'i keng tarqalaverib, odamlar ko'chib kela boshlagan. Bugungi kunga kelib besh ming aholi yashaydigan mo'jaz ko'rinishga kelgan. Xullas, yuqoridagi gap-so'zlar haqiqat.

Kunbotar tarafimizda Chilash qishlog'i joylashgan. Bu maskan anchagina mashhur oromgohlardan qolishmaydi, desam adashmayman. Yoz keldi deguncha uch tomondagi oromgohlar dam oluvchilar bilan to'ladi. Bu yerda 3 ta dam olish maskani bor. Mutaxassislar tomonidan bu yerning mineral suvi shifobaxsh ekani aniqlangan.

Kunchiqar tarafda esa Langan qishlog'i. Langan tog'li hudud. Atrofi qir-adir. Toshliklardan iborat. Bu yer ham o'ziga xos so'lim, viqorli tog'lardan iborat bo'lib, deyarli har faslda muzliklar va qorga burkangan bo'ladi. Adir va yonbag'ir qismida turli xil o'rmonlar bor. Qarag'ay, o'troq, do'lana, yovvoyi daraxtlar o'sadi. Tog' echkilari, yovvoyi cho'chqa, quyon, qizil kitobga kiritilgan bir qancha qushlar bor. Turizm va chorvachilik aholining asosiy tirikchiligi.

Langarliklar atoqli xalq baxshisi Po'ltan shoirning nabirasi, hassos shoir Amirqul Po'ltan, qomuschi olim, adabiyotshunos G'aybullas-Salom va boshqa taniqli insonlar bilan hamyurt ekanliklarini g'urur bilan gapirishadi. Langar! Nima bu yerda langar ko'pmidi? Yo'q, albatta. Bu qishloqqa yaqin temiryo'l stansiyasi – Zirabuloq. Odamlar Zirabuloqdan kelishda Langarda to'xtab o'tgan. Xullas, langar tashlab o'tish uchun joy mazmunida yoki Langartoqqa monand shunday deb atalgan bo'lsa kerak. Deyarli sakson uch yildan beri shu nom bilan ataladi.

Hojiakbar BEKTOSHEV,
O'zbekiston davlat jahon
tillari universiteti
1-bosqich talabasi



Sohibqiron saltanatida

harbiy vazir lavozimi bo'lganmi?



Sohibqiron Amir Temurning markazlashgan, qudratli va qonun ustuvor bo'lgan adolatli davlatni jahon sahnasiga olib chiqishi Ikkinchi Renessans davri boshlanishiga to'g'ri keldi. Ushbu tarixiy davrni o'rganish davomida Amir Temur iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sohalar bilan bir qatorda harbiy sohaga alohida e'tibor qaratganini ko'rish mumkin. Uning harbiy vazir lavozimini joriy etishi fikrimizni dalillaydi.

Vazir harbiylarning maoshi, alohida xizmatlari uchun ularga tuhfa qilingan yer boshqaruvi, harbiy kadrlarni tayyorlash, qurol-aslaha ta'minoti, harbiy ko'rikلامي tashkillashtirish, harbiy razvedka ma'lumotlarini o'rganish va jamlash, janglarda yarador bo'lgan va xizmatga yaroqsizlarga nafaqa tayinlash, iste'foga chiqqan harbiylar to'g'risida qayg'u urish kabi masalalar bilan shug'ullangan.

Shuningdek, yana muhim lavozimlardan biri tavochidir. Oliy farmonga ko'ra, u joylarga borib shijoatli, mard, jasur, yuksak qobiliyatga ega. Vataniga sadoqatli, razvedka ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlashga qobiliyatli yoshlardan lashkar to'plash bilan shug'ullangan. Bu vazifa g'oyatda muhim ahamiyat kasb etgani uchun Sharafiddin Ali Yazdiy mubolag'a bilan uni "oliy hukmdordan keyingi yuqori darajadagi davlat mansabi", deb baholaydi.

SOHIBQIRON HAYOTI va faoliyatidagi sirli voqealar maxfiy xizmat – razvedka bilan bog'liqlikni ko'rsatadi. Harbiy razvedka tuzilishi, strategiyasi va taktikasi haqida aniq ma'lumotlar bo'lmasa-da, Temurning zamondoshi bo'lgan arab tarixchisi Ibn Arabshoh tomonidan tarix manbalarida qisqa bo'lsa ham ma'lumotlar yoritilgan. Amir Temurni yoqtirmagan Ibn Arabshoh o'zi bilmagan va istamagan tarzda hali hech kim bitmagan va qo'l urmagan mavzuni yoritib, kelgusi avlod uchun qimmatli ma'lumotlarni qoldirdi. Xususan, josuslar (*razvedkachilar*) yon-atrofta bo'layotgan hodisalar haqidagi xabarlarni, har bir joyning boshliqlari, amirlari, ulug'lari, fozillari, boylari va faqirlari, ularning ism va laqablari, shuhrati va nasabini hamda kasb-hunarlarini to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida Temurga yetkazib turgan. Shu bilan birga, razvedkachilar orasida turli yoshdagilar bo'lib, har biriga o'z darajasida muhim vazifa va topshiriqlar yuklatilgan.

Ibn Arabshoh Amir Temur razvedkachilarining o'ta ziyrak va sezgirlikiga qoyil qolib, ular kamdan kam xato qilishini aytib o'tadi. Belgilangan muhim topshiriq va vazifalarni bajarish jarayonida bir vaqtning o'zida bir razvedkachi qatorida boshqasi ham ish olib

borgan. Natijada topshiriqlarni bajarish jarayonida uzviylik ta'minlangan. Shu orqali Temur ishonchli, aniq va tezkor ma'lumotlarga o'z vaqtida ega bo'lgan. Razvedka ma'lumotlaridan oqilona, taktik va strategik jihatdan foydalangan sarkarda va davlat arbobi teran nigohi, yuksak mantiqiy fikrlashi, tahlikali vaziyatlardan ogoh bo'lishi va ularni anglashi, o'z vaqtida tezkor qaror qabul qilishi bilan boshqa sarkardalarni doimo hayratga solib kelgan.

AMIR TEMURNING harbiy razvedka xizmati vakillari chakanafurush, yirik savdogar, polvon, dorboz, hunarmand, munajjim, qalandar, darvesh, dengizchi, sayyoh, meshkob, etikdo'z, tolib niqobi ostida turli mamlakatlarda bo'lgan, u yerlardagi shaharlar, qishloqlar, yo'llar, tog'-u daralar, suvlar va har bir joyning aholisi, boshliqlari, ulug'lari, amirlari, fozillari, shariflari, boy-u kambag'allari to'g'risida o'rganilgan batafsil ma'lumotlarni yig'ib, hatto chizilgan suratlar bilan Samarqandga yuborib turishgan. Temur bu bilan cheklanmay, harbiy-siyosiy munosabatlarga kirishayotgan mamlakatlar tarixi, urf-odatlariga oid asoslarni ham sinchkovlik bilan o'rgangan.

Boshqa tarixchilardan farqli o'laroq, Ibn Arabshoh o'z iqrori bilan Amir Temurning harbiy razvedkasi borasida yana bir qiziqarli fikr bildirgan. Xususan, u Temur askarlari orasida butparastlar, majusiylar (*olovga sig'inuvchilar*), koinlar-u sehrgarlar, zolimlar-u munkirlar (*gunoh qiluvchi*) bo'lganini, ulardan harbiy razvedka faoliyatida ham keng foydalangani, hatto sohibqiron harbiy razvedka mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha 3-6 oylik maxsus kurs (*maktab*)lar tashkil etilganini aytadi.

Razvedka bilan shug'ullanishda savdogarlar alohida ahamiyat kasb etgan. Ularning savdo aloqalari orqali qo'shni mamlakatlardagi siyosiy vaziyat to'g'risida aniq va o'ta muhim, qimmatli ma'lumotlardan xabar berib turishi katta g'alaba va zafarlarni qo'lga kiritishga zamin yaratgan.

Temur maxfiy ma'lumotlar olib kelgan kishilarga "Mayli, har kimsa xatoning eng quyisigacha yiqilsa ham yoki savobning

cho'qqisiga ko'tarilsa ham farqi yo'q, hech biri tortinmasdan gapiraversin. Chunki agar xato qilsa, bu nuqson emas, agar maqsadi muvofiq bo'lsa, unga ikki hissa mukofot", deb ularni taqdirlab kelgan. Shu sababli odamlarning Amir Temurga ishonchi kundan kunga oshib boravergan.

Sohibqiron tomonidan razvedka ma'lumotlarini zudlik bilan yetkazish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berilgani tarixiy manbalarda keltiriladi. "Amir qildimki, deb yozadi Amir Temur, – mingta tezyurar tuya mingan, mingta ot mingan yelib-yuguruvchi kishini chopqunchi, ming nafar tezyurar piyodani (*chopar*) tayinlansinki, turli mamlakatlar, sarhadlarning xabarlarini, qo'shni hukmdorlarning maqsad va niyatlarini bilib, huzurimga kelib xabar qilsinlar, toki biror voqea, kor-hol yuz bermasdan burun chora va ilojini qilaylik".

TARIXDAN MA'LUMKI, Amir Temurning kelini Sevinchbeka eri Mironshohning Sultoniya qilayotgan beboshligi haqida shaxsan o'zi qaynotasiga xabar yetkazgan va saltanat boshiga kelayotgan xavf bartaraf qilingan.

Temur mashvarat o'tkazayotgan vaqtlarida sinalgan xabargir (*xabarchi*), darakchi, ayg'oqchi, josus, xufiya deb atalgan odamlarining axborotlarini diqqat bilan eshitir, zarurat tug'ilganda razvedka bilan shug'ullanuvchi mulozimlarga kiyim ichidan sovut kiyishni buyurardi. Bundan harbiy razvedka olib borish o'z jonini fido qilish bilan barobar ekaniga ishora qilishni ko'rish mumkin. Temur tomonidan hamma fikrlar o'rganilib, bir to'xtamga kelingan.

"Temur tuzuklari"da bunday yozadi: "Qarshi qal'asida beklarning xotirini jam qilish uchun bu yerdan ko'chib, Xuroson tomonga qarab yo'lga tushdim. Amudaryodan kechib o'tganimga Xuroson tomondan Qarshiga kelayotgan karvonga duch keldim. Karvonboshi menga sovg'alar taqdim etdi. Men undan Xuroson amirlarining hol-ahvolini so'radim. Xuroson viloyatiga ketayotganimni izhor etdim, ketishlariga ruxsat berdim. Faqat karvonga ayg'oqchi qo'shib yubordim va u xabar keltirguncha daryo sohiliga joylashib kutdim. Ayg'oqchi olib kelgan xabarga ko'ra, amir Musoga shunday dedilar: Temurni Amudaryoning narigi yoqasida ko'rdik. Xuroson tarafiga ketayotgan ekan. Bu xabar amir Muso va amir Husaynning lashkariga yetgach, hammasi xursand bo'lib, o'yin-kulgi, aysh-ishratga berilib ketgan". Shu o'rinda Temurning razvedkachilardan raqibni chalg'itishda ham foydalanganini anglash mumkin.

"TEMUR TUZUKLARI"DA oltinchi toifa odamlar haqida gapirilib, "Ishonchli, to'g'ri e'tiqodli oqilxiradmand kishilarkim, davlat sirlarini ularga ochib, saltanat ishlari bo'yicha ular din maslahat olishimga loyiq

edilar. Bu toifa kishilar bilan sirdoshlik qilib, o'z maxfiy ishlarim va pinhoni sir-asrorlarimni o'shalarga topshirdim", deyiladi. Bundan ko'rinish turibdiki, Amir Temur o'z davlatida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda maxfiy xizmat xodimlari bilan doim maslahatlashib ish olib borgan.

Sohibqiron harbiy yurishni boshlashdan oldin dushmanning qurolli kuchlari, mudofaa inshootlari, u yerdagi ichki vaziyat haqida aniq va to'la ma'lumotga ega bo'lish maqsadida maxfiy xizmatchilarini yuborib turgan. Dushman to'g'risida zarur ma'lumotlarga ega bo'lgandan keyingina yurishga taraddud ko'rilgan. Harbiy yurish yoki jang paytida boshboshdoqlik, parokandalikning oldini olish maqsadida har bir bo'linma, guruh, qismning o'z maxfiy parollari bo'lgan. Shu orqali bo'linma, guruh, qismlar ichida maxfiylik ta'minlangan.

AMIR TEMUR ARMIYASI taktik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Razvedka a'lo darajada yo'lga qo'yilgan, qismlarning janggohda yoki jangovar safda talab darajasida harakat qilishi uchun zarur tadbir va choralar ishlab chiqilgan, ularni jang paytida tezkorlik bilan boshqarishga alohida diqqat qaratilgan. O'nlik, yuzlik, minglik va tuman qo'mondonlarini tanlash masalasiga oliy bosh qo'mondon mas'ul hisoblangan, jang vaqtida qo'shin qanotlarini dushman hujumidan muhofaza qilish va, o'z navbatida, g'anim kuchlarini yon tomondan aylanib o'tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliqlar bo'lgan. Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, sohibqiron qo'shinida ayollardan iborat bo'linmalar bo'lib, ular erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalari ko'rsatgan.

Shu sababli sohibqiron Sharqda birinchilardan bo'lib armiyaga o'z sochar qurol (*to'praq*)ni olib kirgan. Temuriylar davrida bu qurolning boshqa turlari (*zarbzari, farangi, qozon va hokazo*) keng yoyildi. Tog'li hududlarda jang olib boruvchi maxsus harbiy qism va bo'linmalar tashkil etilgan. Bunday harbiy qism Aleksandr, Gannibal, Chingizxon, Lyudovik XIV, Buyuk Fridrix kabi atoqli sarkardalar qo'shinida ham bo'lmagan. Birgina Shayboniyxon armiyasida bunday qism mavjud edi va u to'lyuma deb nomlangan.

AMIR TEMUR jahon tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida an'anaviy besh bo'lakdan farqli ravishda yettitaga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etgan. Bu yangilik keyinchalik To'xtamish, Shayboniyxon singari sarkardalar tomonidan o'zlashtirilgan. Temuriylarga ko'plab zafarlar keltirgan bu harbiy taktikalardan Shayboniyylar, Ashtarxoniylar va O'rta Osiyo xonliklari (*Buxoro, Xiva, Qo'qon*) o'zlariga moslashtirib foydalangan.

Xalqimiz "ma'lumotga ega kishi dunyoni egallaydi" deb bejiz aytmagan. Amir Temur ham razvedka orqali juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'lgan. Shu sababli u yetti iqlim hukmdori bo'ldi. Jahonda misli ko'rilmagan saltanatni barpo etdi va uning shuhrati dunyoga taraldi.

Shularni inobatga olgan holda hozirgi kunda Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari hamda mustaqil izlanuvchilar, mutaxassislar tomonidan buyuk ajdodlarimiz –Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur, Shohruh Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa sarkardalarning boy merosi, boshqaruv va sarkardalik mahorati, strategiya va jang taktikasi bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularning bu boradagi tajribasidan harbiy xizmatchilar hamda kursant va tinglovchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirishda foydalanib kelinmoqda.

**Podpolkovnik
Alimardon O'TAPO'LATOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi Milliy
iftixor va harbiy-vatanparvarlik
kafedrasida katta o'qituvchisi**

Hayot tomchilari

SOVG'A



Birga ishlagan ustoz hamkasbimiz nafaqaga chiqdi. Kuzatuv marosimiga tayyorgarlik ko'ra boshladik. To'n, do'ppi va belbog' tayyor. Faqat jamoa nomidan esdalik sovg'a olinsa bo'lgani. Nima olsak ekan?!

Hamma o'z fikrini bildiradi ketdi:

- Meva sharbatini siqib chiqaradigan uskuna olsak, qanday bo'larkan? Maza qilib meva-yu sabzavot sharbatidan bahramand bo'lishadi.
- Mikroto'lqinli pech olishni maslahat beraman.
- Undan ko'ra, chinni idishlar jamlanmasi olaylik, ayoli ham xursand bo'ladi.
- Yo'g'ee, bo'lmaydi, eng yaxshisi soch-soqol oladigan zamonaviy ustara ma'qul.
- Ustozning boshida deyarli soch yo'q-ku! Keyin bunday qo'lga ilinsa bo'ladigan buyum topinglar.
- Charm sumkaga nima deysizlar? Ijodkor uchun doim kerakli narsa.
- Ustozda charm sumka bor. Sayohatga chiqqanda ishlatiladigan sumka bo'lsa boshqa gap.
- Bahsni to'xtatinglar, – tortishuvga chek qo'ydi yoshi kattaroq hamkasbimiz. – Bu turishda

biror xulosaga kelishimiz qiyin. Ustozning o'zidan so'ray qolamiz.

- Qanday bo'larkan, noqulay-ku?
- Noqulay emas, keraksiz narsa olgandan ko'ra, fikrini bilganimiz yaxshi...
- Menga hech narsaning keragi yo'q, hurmat va mehrning o'zi yetarli, – hammaga minnatdorlik bildirdi ustoz.

Biroq biz ham bo'sh kelmadik. Va nihoyat ustozning javobini oldik:

- Sovg'a olish niyatidan qaytmas ekansiz, unda mayli Vatanimiz bayrog'ini sovg'a qila qolinglar. Uni uyimiz to'rida asrayman...

Biz kutmagan, bizni lol qoldirgan javob, ustozning vatanparvarlik ruhidagi unutilmas sabog'i edi.

QARZ
DAFTARI

– Mana, ikki kilo makaron va bitta pista yog'i. Yana biror narsa kerakmi, amaki?

– Bo'ladi, o'g'lim, bo'ladi, – oltmish yoshlardagi otaxon sotuvchi yigitning qo'lidan paketni olar ekan, – faqat... qarz daftaringga yozib qo'y, bolam, erta-indin hamma qarzlarni to'layman, – dedi xijolatlik bilan.

Sotuvchi katta qarz daftariga nimalarnidir tirkadi-da, mung'ayib turgan o'smir yoshdagi bolaga savol nazari bilan qaradi.

- Aka, menga...
- Puling bormi? – qovoqlari uyuldi, sotuvchi yigitning.
- Haligi... Buvimning pensiyalari kelgan zahoti to'laymiz.
- Meniyam to'g'ri tushun, uka, qarzlaring yuz mingdan oshib ketdi.

Sendaqalar son mingta. Bu turishdan do'kon egasi meni ishdan haydab yuboradi.

Yigitcha boshini eggancha joyidan jilmadi. Sotuvchi qo'lga paket olib so'radi:

- Har doimgidek beshta "rollton", to'rtta "buxanka"mi?..

DONO O'GIT



Mustaqillikning dastlabki yillari.

- Assalomu alaykum, ota.
- Va alaykum assalom, bolam. To'xta, sen mahalla boshidagi Yo'lvoyning o'g'li Oybekmisan?
- Ha, Oybekman.
- Ikki yil burun shahardagi institutda o'qirding, shundaymi?
- Shunday, faqat... o'qishni tashlab hozir qurilishda ishlayapman.
- Nega?! Axir sen kirgan o'qish juda obro'li, kirish qiyin deb eshitgandim.
- To'g'ri, ammo o'sha payt kiyib borishga poyabzalim bo'lmadi, shunga...
- Afsus, afsus, – bosh chayqadi otaxon. – Shu qiyinchilikni yengib o'tganingda bir umr oyoq kiyimga yolchir eding-da, bolam. Endi esa...
- Yigit otaxonning gapidan mulzam tortgan ko'yi shalog'i chiqib ketgan poyabzaliga qaragancha tek qotdi.

HAYOTGA
TASHNALIK

Hovli darvozasidan ko'chaga chiqqan ham edimki, mahallamizda turadigan Turdixon opaga duch keldim. Uning qon bosimi ko'tarilib, shifoxonada yotib chiqqanidan xabarim bor edi. Oyog'iga erkaklarning katta poyabzalini kiyib olgan ayol yangi yo'lga yurgan bolakaydek chayqalib qadam tashlar, kimdir quvib kelayotgandek orqasiga qarab-qarab qo'yardi. Shu asnoda qayergadir shoshilardi.

- Zilolaxon, singiljonim bormisiz?
- meni ko'rib quvonib ketdi opa. – Qishloqdagi hovlingizga kelibsiz-da, – qiyinalib gapirardi u.
- Ha, opajon shu yerdaman.
- O'zingiz yaxshi bo'lib qoldingizmi?
- Bu turishda qayerga shoshilyapsiz? – oyog'idagi poyabzalga savol nazari bilan qaradim.

- Uydagilar ustimdan qulflab qo'yishgan, – ko'zlari yoshlandi opaning. – Doktorlar qon bosimim tushavermagach, uyga javob berib yubordi. Bir joyda jim yotishim kerak ekan. Meni tashqariga chiqqim, odamlarni ko'rgim keladi. "Dardimga davo bordir, hech bo'lmasa Robixon momoga olib boringlar silab qo'ysin!" desam, erim ham, bolalarim ham ko'nmayapti. Nevaram eshikni ochgandi, qarasam ostonada poyabzalim yo'q. Tashqariga chiqib ketmasin, deb yashirib qo'ygan chog'i. Hovlida hech kim yo'qligidan foydalanib, akangizning tufisini kiydim-da, Robixon momonikiga yo'lga tushdim.
- Opajon, bu yurishingizda qachon nargi mahallaga yetib borasiz, charchab qolasiz-ku?!

– Bormasam bo'lmaydi, Zilolaxon, aniq bilaman, o'sha momo silab qo'ysa, yaxshi bo'lib ketaman. Uydagilar bilib qolmasdan tezroq borishim kerak.

Opa menga yordam umidida ko'zlari javdiragan ko'yi termilgancha, amal-taqal qilib yo'lida davom etdi.

"Nima qilsam ekan, qo'ltig'iga kirib momonikiga birga boraymi, opaning bu yurishida kamida bir soat vaqt ketadi. Bemor ayolning buncha masofaga yurib borishi... Yo'ldan birorta ulov o'tib qolsa yaxshi bo'lardi, o'shanga iltimos qilib ko'rardim..." Xayollarim yakuniga yetmay, Turdixon opaning uyi tomonidan yugurib kelayotgan o'g'li ko'rindi. U halloslab yetib keldi-da, onasiga tanbeh bera ketdi:

- Bu nima qilganingiz, aya, bir joyda yotishingiz kerak! Qon bosimingiz yuqori miyangizga qon quyulishi mumkin.
- Jon bolam, Robixon momonikiga bir marta olib bor, bir martagina, ko'rasan, yaxshi bo'lib ketaman. To'g'rimi, Zilolaxon?

Umid bilan qarab turgan ayolga qanday yordam berishni bilmasdim.

– Onangizning aytganini qilib, o'sha momoga olib boring, o'g'lim. Yoki momoni uylaringga olib keling! Foydasi tegsa ajabmas, – iltimos qildim o'g'liga.

U menga foydasi yo'q, degandek ko'zlarini yumib, boshini qimirlatib qo'ydi va onasining qo'ltig'idan tutgancha, sudragudek qilib, uyi tomon shoshildi. Ertasiga ertalab qishloq jarchisi Turdixon opaning olamdan o'tganini ovoza qildi. Nahotki! Yuragimdan nimadir uzilgandek bo'ldi. "Men xato qildim, yashab qolish ilinjida yo'lga chiqqan chorasiz ayolga yordam qilmay, xato qildim! Balki yordam berganimda..."

Yillar o'tdi. Hayotga tashnalik, yashash umidida javdirab turgan nigohlar xotiramga o'chmas bo'lib muhrlanib qoldi.

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"

Anjuman

CHET TILNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI

Qurolli Kuchlar akademiyasida "Xorijiy tillarni o'qitishda an'anaviy va zamonaviy tendensiyalar uyg'unligi" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Ushbu tadbir xorijiy tillarni o'qitishning dolzarb masalalarini chuqur tahlil qilish, ilg'or tajribalarni targ'ib etish va ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish maqsadida tashkil etildi.

Konferensiyada O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent tibbiyot akademiyasi,

Markaziy Osiyo universiteti kabi nufuzli oliy ta'lim muassasalarining yetakchi olim va mutaxassislari, shuningdek Qurolli Kuchlar akademiyasining professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlari va tajribali pedagoglari ishtirok etdi.

Tadbir davomida xorijiy tillarni o'rgatishda an'anaviy usullar bilan zamonaviy, innovatsion yondashuvlarning

samarali uyg'unligi, til o'rganish samaradorligini oshirish yo'llari, ilg'or xorijiy tajribalar asosida yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish, uslubiy va texnologik muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Shuningdek, konferensiya qatnashchilari tomonidan xorijiy tillarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish, ta'lim jarayoniga interaktiv metodlarni joriy etish, zamonaviy didaktik vositalardan

samarali foydalanish kabi taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

Yakunda ilmiy-amaliy natijalarga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi hamda ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

N. TO'RAYEVA,
Qurolli Kuchlar akademiyasi kafedra boshlig'i



Jarayon

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi va Mudofaa vazirligi rahbariyati tomonidan Qashqadaryo viloyatida o'rganishlar olib borildi.

ISH SAMARADORLIGIGA e'tibor

Dastlab harbiy qismlarning hududida olib borilayotgan qurilish ishlariga e'tibor qaratildi.

O'rganishlar O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti viloyat kengashida davom etib, o'q otish sporti yo'nalishida olib borilayotgan tadbirlar va mashg'ulotlar o'tkazish uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishildi.

Ko'kdala tumani mudofaa ishlari bo'limida esa xizmatni o'tash sharoitlari, chaqiriluvchilar bilan ishlash, bu boradagi faoliyatni raqamlashtirish jarayoni va sohaga doir boshqa masalalarga e'tibor qaratildi.

Jarayonda energiya tejamkorligini ta'minlash, byudjet mablag'larini iqtisod qilish, shuningdek huquqbuzarliklarning, jumladan korrupsiyaviy holatlarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijalariga alohida ahamiyat berildi. Yakunda o'rganilgan masalalar

yuzasidan mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berib o'tildi.

Harbiy prokuratura tomonidan Ko'kdala tumani favqulodda vaziyatlar bo'limida o'rganishlar davom ettirildi.

Shu asnoda xizmatni o'tash sharoitlari, navbatchi va tezkor guruhlar, texnikalar shayligi, monitoring markazi, tezkor axborot almashinuvi va faoliyatiga doir boshqa masalalar tahlil qilindi.

Shuningdek, yong'inlarning oldini olish, yoz mavsumida istirohat bog'lari va cho'milish havzalarida inson xavfsizligini ta'minlash borasidagi faoliyat hamda bu borada olib borilayotgan tadbirlarga e'tibor qaratilib, mutasaddilarga qator topshiriqlar berib o'tildi.

**Adliya mayori
Ozod BAXRNOV,
Qarshi harbiy
prokurorining o'rinbosari**

Ijtimoiy himoya



MUROJAATLARNING ijobiy yechimi

Bugungi kunda Mudofaa vazirligi tomonidan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda ularning muammolarini samarali hal etish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



Andijon viloyati Xonobod tumani hamda Namangan viloyati Pop tumanlarida joylashgan harbiy qismlarda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirokida ommaviy sayyor qabullar tashkil etildi.

Unda harbiy qism qo'mondonligi, harbiy prokuratura, mahalliy hokimliklar, davlat va jamoat

tashkilotlari vakillari ishtirok etdi. Qabul jarayonida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining uy-joy masalasi, ish bilan ta'minlash, maktab va maktabgacha ta'lim, tibbiy xizmat hamda boshqa muhim yo'nalishlardagi murojaatlari tinglandi.

Murojaatlarning bir qismi shu yerning o'zida ijobiy hal etilgan bo'lsa,

ayrim murojaatlar bo'yicha qonunchilik talabidan kelib chiqib, huquqiy tushuntirishlar berildi. Muddat talab etuvchi murojaatlar esa mas'ul tashkilotlarga yo'naltirilib, nazoratga olindi va ijrosining ta'minlanishi yuzasidan tegishli choralar ko'rilmogda.

Shahnoza SULTANOVA
TOQQQ matbuot xizmati

Salomatlik

HUSHYOR BO'LING: OXIRI O'LIM!

SOG'Lom turmush tarzi – Hayot Sifati Kafolati

Inson uchun sog'lom turmush tarzi nafaqat jismoniy salomatlikka xizmat qiladi, balki ruhiy barqarorlik va ma'naviy poklikni ham ta'minlaydi. Bu jarayon faqat sport bilan shug'ullanish yoki to'g'ri ovqatlanishdan iborat emas. Aslida u har kungi odatlarimiz, atrofimizdagilar bilan munosabatimiz, fikr va his-tuyg'ularimizni boshqarish, ichki dunyomizni barqaror saqlash bilan bog'liq chuqur masaladir.

Keling, shu o'rinda sog'lom turmush tarzi haqida to'liqroq to'xtalamiz. Sog'lom turmush tarzi – bu hayotni to'liq va ma'noli yashashning asosi hisoblanadi. U o'zida jismoniy faollik, salomatlikka g'amxo'rlik, ruhiy tinchlik, ma'naviy yuksaklik jamlanib, insonni mukammal shaxsga aylantiradi. Shunday ekan, sog'lom hayot tarzi insonning nafaqat o'z salomatligini asrab-avaylashi uchun, balki atrofida muhitga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun zarurdir. Aynan shu sababli har birimiz o'z hayotimizda faqat jismoniy holatimizga e'tibor qaratish bilan cheklanmay, ruhiy va ma'naviy sog'lomlikni ham targ'ib etishimiz zarur. Chunki haqiqiy sog'lomlik bu insonning to'liq, muvozanatli va barqaror rivojlanishi sanaladi.

Zararli odatlar – yashirin tahdid

Afsuski, hozirgi kunda dunyo bo'yicha ko'plab odamlar turli zararli odatlar girdobiga botib, salomatligini xavf ostiga qo'yimoqda. Masalan, ichkilik, tamaki chekish, narkotik vositalardan foydalanish va jinsiy tartibsizlik kabi illatlar nafaqat insonning sog'lig'ini buzadi, balki uni ma'naviy va ruhiy jihatdan ham inqirozga uchratadi. Bu illatlar inson hayotida qator muammolarni keltirib chiqaradi: jismoniy kasalliklar, oilaviy ajrimlar, iqtisodiy qiyinchiliklar va qo'shimcha ravishda jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka ham tahdid soladi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha har yili ichkilikka bog'liq holatlar tufayli 3 milliondan ortiq odam vafot etadi. Shuningdek, 2023-yildagi tahlillarga qaraganda, dunyo aholisining 20 foiz yoshlari orasida tamaki mahsulotlarini muntazam iste'mol qilish holati qayd etilgan. Bu esa yoshlar o'rtasidagi zararli odatlarning keng tarqalishini va kelajakda ularning sog'lig'iga jiddiy tahdidlar yuzaga kelishini anglatadi.

Hozirgi kunda dunyoda taxminan 296 million kishi narkotik moddalarni iste'mol qiladi. Shuningdek, jinsiy tartibsizlik holatlari OIV va boshqa yuqumli xastaliklarning tarqalishiga sabab bo'lib jamiyatdagi sog'lom hayot tarziga jiddiy to'siq bo'lib xizmat qilmoqda.

Bu ma'lumotlardan xulosa qilishimiz mumkinki, zararli odatlar faqat bir kishining emas, balki butun oila, jamiyat va hatto davlatning farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ham har bir inson o'z hayotida bu illatlardan saqlanish, ularning oldini olish va sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yishga mas'ul ekanini unutmasligi zarur.

Zamonaviy dunyoning jiddiy muammosi

Ushbu illatlar orasida eng xavfli Odam immunitet tanqisligi virusi (OIV) dir. Bu virus insonning immun tizimini izdan chiqaradi, ya'ni inson organizmi turli infeksiyalarga va kasalliklarga qarshi kurasha olmay qoladi. Bu esa uning hayotini katta xavf ostiga qo'yadi. Ajablanarlisi, dunyo bo'yicha 48 milliondan ortiq odam bu virus bilan yashamoqda. Ularning soni yil sayin ko'payib bormoqda.

Muhim fakt: OIV organizmda yillab yashirin holatda bo'lishi mumkin. Inson o'zida virus borligini his qilmaydi, u oilasi va atrofida qilarga virusni

tarqatishi mumkin. Shuning uchun bu kasallikni aniqlash va davolash uchun vaqtida shifokorga murojaat qilish muhim ahamiyatga ega.

OIV qanday yo'llar bilan yuqadi?

Endilikda OIVning asosiy yuqish yo'llariga e'tibor qarataylik. Birinchi yo'l – himoyalangan jinsiy aloqa. Bu keng tarqalgan yo'llardan biri bo'lib, ko'pchilikda virus aynan shu tarzda yuqadi. Shuning uchun sog'lom hayot tarzida oilaviy va axloqiy poklikka rioya qilish eng muhim masala hisoblanadi.

Ikkinchi yo'l – qon orqali. Ayniqsa, sterilanmagan tibbiy asboblardan foydalanganda yoki qon quyish, donorlik, ukollar, turli kosmetik protseduralar kabi jarayonlarda ehtiyot bo'lmasa, virus osonlik bilan yuqishi mumkin. Shu bois shifokor yoki kosmetologga murojaat qilganda, albatta sterilangan asboblardan foydalanishiga ishonch hosil qilish zarur.

Uchinchi yo'l – onadan bolaga yuqishi. Bu homiladorlik paytida, tug'ruq jarayonida yoki ko'krak sut orqali amalga oshishi mumkin. Agar onada OIV bo'lsa, maxsus tibbiy nazoratda turish orqali bolaning salomatligini asrab qolish imkonini bo'ladi.

Shuni unutmaslik lozimki, OIV qo'l berib ko'rishish, birga ovqatlanish, bitta idishdan ovqat yoki suv ichish, umumiy hojatxonadan foydalanish orqali yuqmaydi. Qon so'ruvchi hasharotlar – chivin, bit, kana va boshqalar orqali ham OIV tarqalmaydi. Bu haqda ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan va ular ushbu yo'llarda xavf yo'qligini isbotlagan.

Kasallikning dastlabki belgilari

Kasallikning klinik kechishi boshqa yuqumli kasalliklardagi singari bir necha davrlarga bo'linadi. Kasallikning yashirin davri hech qanday

klinik belgilsiz 5-6 oy, hatto 5-15 yilgacha davom etishi mumkin. Bu holat inson organizmining immun tizimi chidamliligiga bog'liq. Aslida bu davr epidemiologik jihatdan eng xavfli hisoblanadi. Chunki OIV bilan zararlangan odam yuqorida ta'kidlaganimizdek muayyan vaqtgacha virus ta'sirini sezmaydi va kasallikni o'zi bilmagan holda boshqalarga yuqtirib yuraveradi. Yashirin davr o'tgandan so'ng inson organizmida virus o'zining ta'sir kuchini ko'rsatadi, kasallikning dastlabki klinik ko'rinishi grippga xos belgilar bilan kechadi. Bunda kamquvvatlilik, ishtahaning pasayishi, ko'p terlash, tana haroratining ko'tarilishi, limfa bezlari, jigar, taloqning kattalashuvi kuzatiladi. Bo'g'inlarda og'riq, bemor terisida har xil toshmalar paydo bo'ladi, yo'tal, sababsiz ich ketishi boshlanadi va bu hol uzoq davom etishi mumkin. Bemor turli kasalliklarga beriluvchan bo'lib qoladi va bu holat tez-tez qaytalanib turadi.

Xulosa o'rnida

Har bir inson o'zining va yaqinlarining hayoti uchun mas'ul hisoblanadi. Shu bois zararli odatlardan uzoq bo'lish, sog'lom turmush tarzini hayot qoidasiga aylantirish, ma'naviy poklikni asrab-avaylash va psixologik barqarorlikni ta'minlash har birimiz uchun muhim burchdir. Sog'lom hayot tarzi insonning jismoniy va ruhiy barqarorligini saqlash bilan bir qatorda uning oilasi, do'stlari va jamiyatga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda har yili zararli odatlar tufayli 8 millionga yaqin odam vafot etadi. Masalan, har yili 1,3 milliard kishi tamaki mahsulotlarini iste'mol qiladi va ularning katta qismi yoshlardir. Ichkilikbozlik esa har yili 3 million kishining erta o'limiga


sababchi bo'ladi. Bundan tashqari, 35 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan har beshinchi inson kamida bir marta narkotik vositalarni sinab ko'rgani qayd etilgan.

Yoshlar orasida zararli odatlar va tartibsiz jinsiy aloqalarning ortishi turli yuqumli kasalliklarning tarqalishiga ham zamin yaratadi. Masalan, dunyo bo'yicha har kuni taxminan 4 000 nafar yosh yigit-qiz OIV infeksiyasiga chalinishi aniqlangan. Bundan tashqari, jinsiy yo'l bilan yuqadigan boshqa kasalliklar soni ham yildan yilga ortayotgani kuzatiladi.

Shunday ekan, bugungi kunda jamiyatda, ayniqsa yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va uni hayot qoidasiga aylantirish ishlarini kuchaytirish juda muhim hisoblanadi. Bu jarayonda, eng avvalo, tibbiy madaniyatni shakllantirish, gigiyena qoidalariga amal qilish, zararli odatlarning salbiy oqibatlarini haqida yoshlar o'rtasida to'g'ri tushunchalarni uyg'otish katta ahamiyatga ega. Shuningdek, tibbiy xizmat ko'rsatish muassasalarida ham tibbiy anjomlarning zararsizlantirilganiga ahamiyat qaratish, turli kosmetik va maishiy xizmatlardan foydalanishda gigiyena qoidalariga amal qilish yoshlar salomatligini muhofaza qilishda muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

Shu tariqa yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va uning barcha targ'ibot usullarini qo'llash nafaqat ularning kelajagini, balki butun jamiyatning sog'lom avlodni tarbiyalashdagi mas'uliyatini namoyon etadi.

**Tibbiy xizmat mayori
N. OMONOV,
Mudofaa vazirligi
Sanitariya-epidemiologiya
nazorati markazi
bo'linma boshlig'i**



CHEMPIONLIK MAS'ULIYATI



2022-yili havaskorlar o'rtasida o'tkazilgan musobaqada faxrli o'rinni egallagan bo'lsa, 2023-yilda Namanganda bo'lib o'tgan MMA chempionatida singan barmog'i bilan qatnashib, O'zbekiston chempionligini qo'lga kiritdi. Tatami ustida ilk janglarini o'tkazgan Asadbek keyinchalik ring va oktagonda ham chempionlikka erishdi. Shodlik va qayg'u doim yonma-yon yuradi. Asadbekka oilasining suyangan tog'idan ajralish kutilmagan zarba bo'ldi.

– Otam olamdan o'tganidan keyin sportni tashlamoqchi bo'lgandim. Chunki o'shanda ancha tushkunlikka tushib qolgandim, – deydi yosh sportchi.

– Ustozlarim, onajonim kuchli bo'lishim, otamning orzularini amalga oshirishim haqida ko'p uqtirdi. Musobaqalarda mag'lubiyatga uchray boshladim. Jarohat olganimda mendan ko'ra onam ko'proq kuyinardi. Har bir jangimda onam va ustozlarim – Dilshod Ismoilov, Dilhayot Jo'rayev, Sarvar Shokirov yonimda bo'lib, doimiy dalda berardi. Oktagonda o'tkazgan birinchi jangim hanuz ko'z o'ngimdan ketmaydi. Chunki o'shanda onam: “Bolam, xuddi o'zim jang qilgandek bo'ldim”, degandilar. Menga bo'lgan ishonchni oqlash uchun, avvalo o'zimni qo'lga olib, o'z ustimda ishladim, xatolarimdan xulosa chiqarib, har bir mag'lubiyatni saboq sifatida qabul qilish kerakligini angladim.

Otasidan erta ayrilgach, ro'zg'or tashvishlari ham Asadbekning zimmasiga tushsa-da, u nafaqat sport mashg'ulotlari, balki kitob mutolaasiga vaqt topa oldi. “Sport insonni jismonan tarbiyalasa, kitob insonga ruhan dalda beradi, kamillikka yetaklaydi”, degan shiorga amal qilgan qahramonimiz bo'sh vaqtini unumli o'tkazadi. Uning bu intilishi bugungi yoshlar uchun o'rnak bo'lishga arziydi. Asadbekning g'alabalari hali oldinda.

Iroda BOYMIRZAYEVA,
O'zJOKU talabasi

Sirdaryo quyoshi ostida qizigan changli ko'chalar. Har qadamda bolalarning sho'x kulgisi. Mahallada na stadion, na sport zali bor. Lekin ularning qalbida orzu, oyog'ida har safar gol uradigan sehrli krossovka, qo'lida esa yamoq bilan qoplangan futbol to'pi bor edi.

Bolalarga xos tortishuvlar, janjallar tufayli “bezori” nomini olgan bolakay kun kelib O'zbekiston chempioni bo'lishi kimning xayoliga kelibdi deysiz?! Qahramonimizni ko'chada bolalar bilan mushtlashib har safar ko'ylagini yirtib kelishidan charchagan dadasi uni sportga yo'naltirishga qaror qildi. Asadbek qo'ljangida avval havaskorlar safida, keyin professional musobaqalarda qatnashdi. 2020-yili ilk bor qo'ljangi bo'yicha professional o'rtasida o'tkazilgan musobaqada O'zbekiston chempionligini qo'lga kiritdi.

Bir marta g'alaba nashidasini tuygan inson, albatta, bu tuyg'uning yana ta'mini totgisi keladi. 2022-yili poytaxtimizda qo'ljangi bo'yicha o'tkazilgan respublika chempionatida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlardan kelgan 900 ga yaqin iqtidor orasida Asadbek yana bir bor g'oliblik shohsupasiga ko'tarildi. O'z muvaffaqiyatidan ilhomlangan Asadbek Normurodov aralash jang san'ati (MMA)da o'zini sinab ko'rdi va bu yo'nalishda ham g'oliblikni qo'ldan bermadi.

“OPEN BYUDJET”

BALOSI

Hammasi oyimning “Singillaringning majlisiga borib kelishing kerak”, degan topshiriqlaridan boshlandi. O'zi shundoq ham keyingi paytlari fikrlarim chalkash, ayrim yurtdoshlarimizning loqaydligi, vaziyatni to'g'ri tahlil qila olmasligi, iste'molchilarning fikrini o'rganish so'rovnomalari va hatto referendum saylovlariga yengil qarashi, “Mening ovozim nimani ham hal qilardi” degan falsafasi meni o'yga solib yurgan vaqtlar edi. O'sha kuni ham shunday o'y-xayollar bilan yo'lga otlandim.

Biz ham yaqinda bola edik, ota-onalar majlisi biz uchun muhim yig'ilish hisoblanar, yig'ilish oldi xulq-atvorimiz va darslarimizga e'tiborimizni kuchaytirib, orqamizdan kelgan odamning yuzini yerga qaratib qo'ymaslikka harakat qilar edik.

Bu mening bolaligimdan keyingi tashlagan ilk qadamim. Ammo maktab ostonasini dars olish uchun emas, bolalarga mas'ul shaxs sifatida hatlab o'tyapman. Majlis xonasini topib, ichkariga kirdim. Birin-ketin ota-onalar kela boshladi. Hamma jam bo'lgach, yig'ilish boshlandi. Salom-alikdan keyin gapning indallosi aytiladi. “Open byudjet”ga ovoz to'plashimiz kerak ekan. Maktabimiz g'olib chiqsa, har bir xona zamonaviy partalar hamda shkaflar

bilan ta'minlanishi ma'lum qilindi. Sinf rahbari yig'iladigan summani aytib, asosiy maqsadga ko'chdi:

– Shuning uchun sizlarni iltimos bilan chaqirtirdim. Har biringizdan 50 ming so'mdan pul yig'ib, sinfda shu ishni tashkillashtirsak. To'plangan mablag'ga sim kartalar sotib olib, ovoz bersak, biz aniq g'olib chiqamiz. O'tgan yili ham shu yo'l bilan maktab tomini ta'mirlatgan edik.

Ana senga “Open byudjet” mana senga umumta'lim. Men singillarimning o'zlashtirishi bo'yicha maqtov eshitib, g'urur tuyaman, deb o'ylagan edim. Afsus, unday bo'lmadi. Chunki doim asosiy muammo eng oxirgi o'rinda qolib ketadi. Bizga bolalarning olayotgan ilmi, xulqi, kelajagi, rivojlanishidan

ko'ra, “Open byudjet” singari tadbirlar muhim. Shu bilan mashmashalar tugadi, deb o'yarsiz. Aslo. Asosiy masaladan boshqa barcha mavzu qizg'in muhokamda bo'ladi. Kim qanday, qaysi rusumli mashina mingani yoki qaysi firmaning tillosini taqqanini davrlarda tinimsiz gapiramiz. Serialimizning keyingi soni qiziq. Xullas, gapirsa gap ko'p.

Bu holatlarni kuzatib, maymun o'zi o'tirgan daraxt shoxini arralagani haqidagi masal yodga tushadi. Biz ham xuddi shunday qilmayapmizmi? Qachon qarashlarimizni to'g'ri yo'naltiramiz? Nima deb o'ylaysiz?

Robiya SHOMUXSIMOVA,
O'zJOKU talabasi



O'zbekiston chempionati

Eng mohir aviamodel SPORTCHILAR ANIQLANDI



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan Andijon viloyatining Ulug'nor tumanida kord aviamodellari bo'yicha O'zbekiston chempionati o'tkazildi.



Musobaqada Toshkent shahri va viloyatlardan tashrif buyurgan 70 dan ortiq sportchi o'zlari tomonidan yasalgan kord aviamodellari bilan ishtirok etdi. Murosasiz va qizg'in kechgan chempionat quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

"F-2-A" sinfida:

- 1-o'rin: Kseniya Zenkina (Toshkent shahri);
2-o'rin: Ruslan Rasulov (Toshkent viloyati).

"F-2-B" sinfida:

- 1-o'rin: Muhammadali Nabijonov (Namangan viloyati);
2-o'rin: Artur Useinov (Toshkent viloyati);
3-o'rin: Akbarjon Abidov (Andijon viloyati).

"F-4-B" sinfida:

- 1-o'rin: Artur Ro'zmetov (Toshkent viloyati);
2-o'rin: Gulshoda Nabijonova (Namangan viloyati);
3-o'rin: Behro'zbek Anvarov (Farg'ona viloyati).

"F-2-D" (Havo jangi) sinfida:

- 1-o'rin: Kseniya Zenkina, Aleksandr Zenkin (Toshkent shahri);
2-o'rin: Alan Mazakbayev, Sergey Sergeyevich Momotov (Toshkent viloyati);
3-o'rin: Artur Ro'zmetov, Sergey Nikolayevich Momotov (Toshkent viloyati).

Jamoa hisobida:

- 1-o'rin: Toshkent viloyati;
2-o'rin: Toshkent shahri;
3-o'rin: Namangan viloyati jamoalari.

Musobaqa g'oliblariga "Vatanparvar" tashkilotining diplom, medal va esdalik sovg'alari topshirildi.



"Shunqorlar" harbiy sport o'yinlari



VATANPARVARLIK — oliy maqsadimiz!

Mamlakatimiz bo'ylab O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi kubogi uchun "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining hududiy bosqichi jadallik bilan davom etmoqda.

Buxoro viloyatida viloyatning tuman va shaharlaridagi umumta'lim maktablari va kasb-hunar ta'limi muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar va talabalardan tashkil topgan 9 ta jamoa ishtirok etdi.

Do'stona va murosasiz kechgan bahslarda Qorako'l tumanning yoshlaridan iborat "Burgutlar" jamoasining qo'li baland kelib, 1-o'rinni egalladi. Ushbu jamoa final bosqichida Buxoro viloyati sha'nini himoya qiladi. 2-o'rin G'ijduvon, 3-o'rin esa Romitan tumanlarining jamoalariga nasib etdi.

Shuningdek, Qashqadaryoda tashkil etilgan viloyat bosqichida Koson tumani, Navoiyda esa Navoiy shahri yoshlari g'oliblikni qo'lga kiritib, final bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Sayyor qabul

Bevosita muloqot

Xalq bilan bevosita muloqot – muammolarni o'rganish va tezkor hal etish borasida muhim omillardan biri.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari rahbariyati bilan hamkorlikda mamlakatimizning olis hududlarida ommaviy sayyor qabullar o'tkazib kelinmoqda.

Ularning navbatdagisi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida tashkil etildi. Unda harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, pensionerlar va yoshlar murojaati tinglandi.

Qabul jarayonida kelib tushgan jami 52 ta murojaatdan 18 tasi joyida ijobiy hal etildi, 21 tasiga huquqiy tushuntirish berildi, muddat talab etadigan 13 ta murojaat ijrosi nazoratga olindi.

**Adliya kapitani
Sherzod UNGAROV,
Termiz harbiy prokurorining katta
yordamchisi**

O'rganishlar

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Surxondaryo viloyatidagi harbiy tuzilmalarda o'rganishlar olib borildi.

KO'RSATMALAR BERILDI

Jarayonda hududda amalga oshirilayotgan qurilish va ta'mirlash ishlari ahvoli, byudjet mablag'lari iqtisod qilinishi, ishlarning shartnomadagi muddatda bajarilishi, tegishli qonunchilik talablariga rioya etilishi masalalariga e'tibor qaratildi.

Shuningdek, harbiy xizmatni o'tash sharoitlari, shaxsiy tarkib va texnikalar shayligi, nazariy-amaliy mashg'ulotlar o'tkazish jarayoni bilan bevosita tanishdi.

Shu bilan birga energiya tejamlorligini ta'minlash, harbiylar va Qurolli Kuchlar xizmatchilari hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoyasi, bundan tashqari, huquqbuzarliklarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijalariga va faoliyatiga doir boshqa masalalarga alohida urg'u berildi.

O'rganishlar davomida harbiy xizmatchilar bilan muloqotlar o'tkazildi. Yakunda o'rganilgan masalalar yuzasidan mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berib o'tildi.

**Adliya polkovnigi
Sherzod MIRZAYEV,
Termiz harbiy prokurori**

Qaror va ijro

"Yashil" energetika sari

Yoqilg'i-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish va behuda sarflanishining oldini olish hamda energiya samaradorligini oshirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, bu borada Toshkent viloyatining Ohangaron shahri va Chinoz tumanida, Farg'ona viloyatining Dang'ara tumanida, Buxoro viloyatining Kogon shahri va tumanida o'rganishlar o'tkazildi.

Jarayonda idoralararo ishchi guruh tomonidan davlat rahbarining "Yoqilg'i-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish va behuda sarflanishining oldini olish hamda energiya samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni takomillashtirish to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar ahvoli o'rganildi.

Shu asnoda energiya resurslarni iqtisod qilish, noqonuniy foydalanish holatlarini aniqlashda reytd tadbirlari samaradorligini oshirish, energiya tizimi barqaror ishlashini hamda energiya resurslarini aholi va iqtisodiyot tarmoqlariga uzluksiz yetkazib berish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, bu borada tegishli ko'rsatmalar berib o'tildi.

**Adliya polkovnigi
Tohir JO'RAYEV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy
prokuraturasi bo'lim boshlig'i**

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA
REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA



muhim e'tibor

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Samarqand viloyati kengashi tasarrufidagi Nurobod tumani o‘quv sport-texnika klubida harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti, haydovchilar tayyorlash hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida samarali natijalarga erishilyapti.



Jumladan, keyingi yillarda klubda yoshlarning ma'naviy va jismoniy tomondan sog'lom bo'lishlariga alohida e'tibor qaratmoqda. Chunki sog'lom fikrli, keng dunyoqarashga ega yosh avlodni tarbiyalash mazkur tashkilotning ham muhim vazifalaridan biridir. – Bu mas'uliyatli vazifani bajarish hamda amalga oshirilayotgan tadbirlar ko'lamini yanada yaxshilash maqsadida hamkorlikda turli tashkilotlar, jumladan tuman mudofaa ishlari, maktab va maktabgacha ta'lim bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi bilan ma'naviyat va harbiy-vatanparvarlik targ'ibotlari olib borilmoqda, – deydi O'STK boshlig'i Sobirxon Samatov. – Shu bois

“Vatanparvar” tashkiloti – mening tanlovim!”, “Ochiq eshiklar kuni”, “Uch avlod uchrashuvi” kabi tadbirlar muntazam oʻtkazilmoqda. Masalan, 9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan tuman hokimligi, mudofaa ishlari, Yoshlar ishlari agentligi, Maʼnaviyat va targʻibot markazi tuman boʻlimlari bilan hamkorlikda “Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yoʻlidagi qahramonlik unutilmaydi!” mavzusidagi maʼnaviy-maʼrifiy tadbir ham shular sirasidandir. Shuningdek, sport tadbirlari ham muntazam tashkil etilmoqda. Yaqinda tumandagi 1-, 2-, 3-, 34- va 61-umumtaʼlim maktablarining yuqori sinf oʻquvchilari

asida pnevmatik
quroldan o'q otish
sporti bo'yicha
musobaqa
o'tkazildi.
Bellashuv
natijalariga
ko'ra, 1-o'rin
3-umumta'lim
maktabi
jamoasiga
nasib qilgan
bo'lsa, 2-o'ringa

34-umumta'lim maktabi
o'quvchilari munosib
deb topildi. Faxrli 3-o'rin esa
1-umumta'lim maktabi jamoasiga
nasib qildi.

Ayni paytda klubda yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida "Havo miltig'idan o'q otish", "Avtoralli" kabi seksiyalarda 30 nafardan ortiq yosh muntazam shug'ullanib kelmoqda. O'z navbatida, klub a'zolari nufuzli musobaqalarda faol ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritayпти. Masalan, sportchimiz

Shuhrat Obidjonov "Ralliy Muynak – 2025" avtoralli bo'yicha O'zbekiston chempionatida faxrli 2-o'rinni egallab, viloyatimiz sharafiga munosib himoya qildi.

Shu kunlarda klubda "B", "BC", "C" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda. Shuningdek, haydovchilar malakasini oshirish kurslari ham tashkil etilgan. Tumandagi "Yoshlar daftari" ro'yxatida turadigan kam ta'minlangan oila farzandlari uchun ham bir qancha imkoniyat va qulayliklar yaratilgan. Bundan tashqari, turli tadbirlar o'quvchi-yoshlarning yozgi ta'tilni maroqli va mazmunli o'tkazishlari uchun ham xizmat qilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarning kelajakda yetuk inson bo'lib kamol topishiga erishishdir.

Akbar ALI



*Vatanparvar”
tasfikiloti Nurobod
tumani o’quv sport-
texnika klubi
jamoasi barcha
yurtdoshlarimizni
mubarak Qurbon hayiti
munosabati bilan
samimiy tabriklaydi.
Ushbu ayyam
xonadoningizga fayz-u
baraka olib kelsin!*

Dolzarb 90 kunlik

“TONG” DA NAVBATDAGI mavsum BOSHLANDI

Bo'stonliq yurtimizning eng bahavo, so'lim go'shalaridan biri. Mudofaa vazirligining “Tong” bolalar sog'lomlashtirish oromgohi ham o'sha yerda — muazzam tog'lar bag'rida joylashgan. 3-iyun kuni navbatdagi dam olish mavsumi bayramona tarzda boshlandi. Oromgoh yurtimizning turli burchaklaridan uch yuzga yaqin o'g'il-qizni o'z bag'riga oldi. Mavsumning tantanali ochilish marosimida mudofaa vazirining o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev ishtirok etib, yig'ilganlarni qutladi.

DOLZARB 90 KUNLIK

Ta'tillar fasli yozning ilk kundan “Dolzarb 90 kunlik” tadbiri ham start oldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2025-yil 15-may kuni “Maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi” yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yozgi ta'til vaqtida bolalar va yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, voyaga yetmaganlar bilan salbiy holatlar hamda ular o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan ishlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida mamlakat miqyosida “Dolzarb 90 kunlik” tadbiri e'lon qilingan edi.

Unda vazirlik va idoralarga oromgohlarda dam olayotgan bolalar va mahallalarda o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, sportga qiziqishlarini oshirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazish bo'yicha vazifalar belgilangan.

Mazkur vazifalarni yuksak saviyada, uyushqoqlik bilan o'tkazish uchun Mudofaa vazirligi tomonidan tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, amalda tatbiq etilmoqda.

“Tong” bolalar oromgohida “Vatan tayanchi” bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati hamkorligida o'tkazilgan “Chaqmoq” harbiy sport musobaqasi ham buning amaldagi bir

ko'rinishidir. Dastlabki kunlardan o'z oromgoh hayotiga jo'shqinlik, quvnoqlik, musobaqa ruhini olib kirgan “Chaqmoq trening” harbiy sport o'yinlari o'g'il-qizlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularni harbiy sohaga qiziqishlarini o'ttirishga xizmat qiladi.

Ilk marta o'tkazilgan musobaqada bolajonlar katta qiziqish bilan ishtirok etdi. O'ziga xos shartlar – “Chang'ida harakatlanish”, “To'siqlar yo'lagidan o'tish”, “Snaryadni xavfsiz joyga olib borish”, “Botqoqlikdan o'tish”, “Merganlik mashqi” bolalardan epchillik, zakiylik, shijoat bilan birgalikda jamoa bo'lib harakatlanish, hamjihatlikni o'rgatadi.

Shu kuni “Liderlar” va “Epchillar” jamoalari ishtirokidagi musobaqada yangragan quvnoq hayqiriqlar olis-olislariga taraldi. Omadning katta-

kichigi bo'lmaganidek, zafarning ham katta-kichigi yo'qdir. Joydan joyga ko'chib bajariladigan o'ziga xos bellashuv g'oyat qizg'in kechdi. Ayniqsa, qizaloqlarning faolligi tilga tushdi, alohida e'tirof topdi. Musobaqa yakunida “Liderlar” jamoasi g'olib deb topildi.

“Vatan tayanchi” bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati rahbari polkovnik Bahrom Zulfiqorov g'oliblarga vazirlikning “Kelajak posboni” ko'krak nishonini tantanali tarzda topshirdi. Ishtirokchilarga esdalik sovg'alar ulashildi.

Bu musobaqalarning so'ngisi emas. Butun yoz respublikamizdagi barcha oromgohlarni qamrab oladi. Va muntazam davom etadi.

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

VATANPARVAR



MUASSIS
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov
Sahifalovchi: Dilnoza Meliq'ziyeva
Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-5972
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 050 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O'zbekiston” NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O'zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@uamail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya